

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Филология факультети

Инглиз филологияси кафедраси

4 - курс талабаси

Шоназарова Шахнозанинг

**“Англия болалар адабиёти вакиллари асарларининг
ўзбек тилига таржималари” мавзусидаги**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Илмий рахбар: Косимова Р.Р.

Бухоро -2017

MUNDARIJA

Kirish

I BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOHLARIDA ANGLIYA BOLALAR ADABIYOTI VA MIRAZIZ A’ZAM TARJIMALARI

1.1. Ingliz bolalar adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari va namoyandalari.....

1.2. Miraziz A’zamning o`zbek tarjimashunosligiga qo`shgan hissasi

1.3. Tarjimada leksik va grammatik transformatsiyalar.....

II BOB. INGLIZ BOLALAR ADABIYOTI VAKILLARI ASARLARINING O`ZBEK TILIGA QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

2.1. Ingliz adabiyoti vakillari asarlarining o`zbekcha tarjimasida leksik transformatsiyalar.....

2.2. Ingliz bolalar adabiyoti asarlarining o`zbek tiliga o`girmalarida grammatik transformatsiyalar.....

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori¹ qabul qilingandan so'ng, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish davr talabiga aylandi. Chet tillarini o'rganishga qaratilayotgan e'tibor va talabni inobatga olgan holda o'zbek yoshlarini ingliz adabiyoti namunalari bilan tanishtirish uchun xizmat qiladigan, ingliz hikoyalarining o'zbek tiliga o'girilishida duch kelinadigan grammatik va leksik muammolarni o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifasidir.

Hozirgi kunda ingliz tilini 1-sinfdan boshlab ta'lim tizimida joriy etilganligi, ingliz tilidagi darsliklarning ya'ni, takomillashtirilgan nusxalarining bosib chiqarilayotganligi hamda o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida maxsus jihozlangan ingliz tili xonalarining yaratilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mazkur bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki unda ingliz hikoyalarining o'zbek tili tarjimasida amalga oshiriladigan ayrim o'zgarishlarni, xususan leksik va grammatik transformatsiyalarni atroflicha o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. Ingliz hikoyalari va ularning o'zbek tiliga tarjima qilingan o'girmalari "Karkidonga Bunday teri qayoqdan kelgan" ("How the Rhinoceros got his skin?"), "Kitbaliqqa xartum qayerdan k elgan ?" ("How the Whale got his throat?"), "Tuyaga o'rkach qayoqdan kelgan?" ("How the Camel got his hump?"), "Yer tepingan Parvona" ("The Butterfly that stamped") va Alan Milnning "Qirolning saryog'li noni" ("King's breakfast") balladasi ishimizning asosiy obyekti sanalsa, tarjima jarayonida qo'llanilgan grammatik va leksik transformatsiyalar uning predmeti hisoblanadi.

¹ Karimov I.A "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori. 2012. "Ma'rifat" gazetasi № 99. –B. 1-2.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad ingliz tilida yozilgan asarlarning o`zbek tilida tarjimasini o`rganish va ularda qo`llanilgan transformatsiyalarni yoritib berishdan iborat. Tadqiqotimiz maqsadi oldimizga quyidagi vazifalarni qo`yishni taqazo etdi:

- Ingliz adabiyotida yaratilgan ertaklarning tarjima manbalarini aniqlash;
- Tarjimada qo`llaniladigan transformatsiyalar haqida tarjimashunoslikka oid kitoblarni o`qish;
- XIX asr ingliz bolalar adabiyotini o`rganish;
- Ingliz adabiyotida yaratilgan asarlarning o`zbek tilidagi o`girmalarida qo`llanilgan grammatik transformatsiyalarni aniqlash;
- Ingliz adabiyotida yaratilgan asarlarning o`zbek tilidagi o`girmalarida qo`llanilgan leksik transformatsiyalarni tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning o`rganilganlik darajasi va yangiligi.

Tadqiqotimizning nazariy asosini I.G`ofurov, O.Mo`minov, N. Qambarovning “Tarjima nazariyasi”, Zoya Proshinaning “Theory of translation”, Qudrat Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari” darslik to`plamlarida tarjima muammolari va grammatik transformatsiyalar izohlangan.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, o`zbek tiliga tarjima qilingan ingliz ertaklari o`rganilib, ularda kuzatilgan transformatsiyalar ochib berildi.

Ishning nazariy asosi. Tadqiqotimizning nazariy asosini I.G`ofurov, O.Mo`minov, N. Qambarovning “Tarjima nazariyasi”, Zoya Proshinaning “Theory of translation”, Qudrat Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari” darslik to`plamlari, Redyard Kiplingning qalamiga mansub ertaklar, Miraziz A`zamning “Jahon bolalar adabiyoti” tarjima asarlar to`plami taskil etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy va nazariy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy va nazariy ahamiyati hozirgi aloqalar har tomonlama kengayib borayotgan davrda, diqqatga havola etilayotgan ushbu malakaviy bitiruv ishi katta amaliy va nazariy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo`lgan fikr mulohazalardan oliy o`quv yurtlarining adabiyotshunoslik,

tarjimashunoslik darslarida ya'ni adabiyotshunoslik yo'nalishi bo'yicha ma'ruzalar va maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bob "XIX asr oxiri – XX asr bohlarida angliya bolalar adabiyoti va miraziz a'zam tarjimalari " deb nomlanib, unda Redyard Kiplingning XIX asr bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi, Miraziz A'zamning adabiy va tarjimashunoslik faoliyati va tarjimashunoslikda qo'llaniladigan transformatsiyalar to'g'risida fikr yuritildi.

Ikkinchi bob nomi "Ingliz bolalar adabiyoti vakillari asarlarining o'zbek tiliga qayta yaratish muammolari" deb belgilandi. Bu bobda ingliz hikoyalarining o'zbek tilidagi tarjimalarida qo'llanilgan transformatsiyalar tahlil qilindi.

Tadqiq etilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, ingliz adabiyotida yaratilgan hikoyalar va ularning o'zbek tilidagi tarjimalari qiyosi asosida qo'llanilgan transformatsiyalar ko'rsatib berildi va har bir o'rganilgan ma'lumot manbai adabiyotlar ro'yxatida aks ettirildi.

I BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOHLARIDA ANGLIYA BOLALAR ADABIYOTI VA MIRAZIZ A'ZAM TARJIMALARI

1.1. Ingliz bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari va namoyandalari

Bolalar adabiyoti tarixchilari ikki ustuvor yo'nalishni ko'rishgan: biri realizm va didaktisizm bo'lsa, ikkinchisi fantaziya va o'yin-kulgi bir-biriga qarama-qarshi tarzda namoyon bo'lgan. Didaktik adabiyot 18- asrlarda bosh yo'nalish bo'lgan bo'lsa, 19- asr boshlaridan boshlab fantaziya didaktik adabiyot o'rmini egallay boshladi. Aka-uka Grim ertaklari ilk bor Germaniyada chop etilib, 1823-yilda Angliyada tarjima qilindi. Levis Kerlning “Alisaning Vonderlenddagi sarguzashtlari” nomli asarining chop etilishi fantastik adabiyoti rivojiga asos slogan kitob va bolalar uchun yozilgan shoh asarlarning birinchisi hisoblanadi. Bu kitoblarning barchasi turli fantaziya asarlari bilan boyish “oltin asr”i boshlanish belgilari sifatida ko'rish mumkin.

Ko'p hollarda, 18-asrda paydo bo'lishni boshlagan bolalar adabiyotining aksariyati fantastika jihatlaridan xoli bo'lgan. O'rta va yuqori tabaqa vakillarining sevimli asarlaridan hisoblanmish Charlz Perrolt qalamiga mansub ertaklar axloqiy qonun qoidalar bilan bir qatorda ilohiy jihatlarni ham aks ettirgan, ammo, didaktisizmdan fantastik yondashuvga o'tish vaqti noma'lumdir. Hattoki, 18-asr o'rtalarida “yangi” bolalar adabiyoti ilk namoyondalari mantiqiy va tarbiyaviy bo'lishi faraz qilingan asarlarida ham fantastika belgilari ko'zga tashlanadi. Aynan shu davrda zamnaviy bolalar kitoblari chop etila boshlandi. Fantastik adabiyot XIX asrga kelib shu qadar mashhur bo'lganligining aniq sababi mavjud emas, ammo uning muvaffaqiyati tezkor ijtimoiy, iqtisodiy va intellektual o'zgarishlarga bog'lanishi shubhasizdir. Masalan Kingslining “Suv chaqaloqlari” asari Charlz Darvinning asariga javoban asar edi desak yanglishmagan bo'lamiz. Fantastik adabiyotning o'sishiga qanday omillar sabab bo'lgandir, ammo ikki narsa ravshandir. Birinchidan, XIX asr oxirigacha ulkan miqdorda afsona-yu ertaklar va fantastik adabiyotning ajoyib namunalari

bolalarga tuhfa qilindi. Ikkinchidan, bu adabiyot yo`nalishi didaktik va realistik matnlardan unchalik ham farq qilmasdi. Yevropa va Britaniyada bolalar adabiyotining “Birinci oltin asr”i XX asr boshlariga qadar davom etdi. Birinci jahon urushi va Ikkinchi jahon urushi oralig`ida bolalar adabiyoti namunalari chop etilishi ancha susaygan bo`lsada bu davrda millionlab yosh kitobxonlar qalbini zabt etgan eng mashhur asarlardan biri Alan Miln qalamiga mansub “Vinni pux” (“Winnie-the-pooh”) kitobi chop etilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlari bolalar adabiyotining rivojiga hissa qo`shgan yozuvchilar Redyard Kipling, Uolter De La Mer, Alan Miln, Donald Bisset, Robert Greyvz, Vilyam Bleyk, Edvard Lir, Robert Stivenson asarlari bolalarning qalbidan chuqur joy egallagan. Donald Bisset – mashhur bolalar yozuvchisi, rassom, kinoaktyor va rejissiyor bo`lib, Donald Bisset ilk ijodini London televideniyasining topshirig`i bilan ertaklar yozishdan boshlagan. U ertaklarni ko`rsatuv uchun tayyorlar va o`zio`qibberardi. U juda usta aktyor ed. O`z ertaklariga ifodali va qiziq rasmlar chizar edi. Eshittirish bor-yo`g`i 8 minut davo etardi, qog`ozga tushirilgan matn ham 2-3 betdan oshmasdi. 1954-yilda “O`zing o`qi” degan kitoblar turkumining birinchisi bosilib chiqdi. Keyin shu yilning o`zida “Siz nimani xolasangiz o`shani aytib beraman” degan yangi to`plami chop etildi. “Qolganini keyin aytaman”, “Axir bir kun aytib beraman” degan to`plamlarini chiqardi. Keyin uning navbatdagi ertaklari – Yak degan birgina qahramonli “Yo`lbars bilan suhbatlar”, “Miranda degan o`rdakning sarguzashtlari”, “Tutun laqabli ot”, “Yik-tak amakining sayohatlari”, “Changalzorda kezish” kabi kitoblari bosilib chiqdi. Barcha kitoblarining rasmini o`zi ishlar edi. Donald Bisset Angliyada 57 ta film va teleserialda aktyorlik qilgan. Birinchi roli “Atrofdan aylanib yurish” filmi bo`lib, 1949-yilda katta ekranga chiqqan edi. 1978-yilda “Atlantida dohiylari” filmida kichik bir rolni ijro etdi. Ammo butun jahon san`at ahllarining yodida qoldi.

Angliya bolalar adabiyoti taniqli namoyondalaridan biri Redyard Kipling 1865-yil Bombeyda dunyoga keldi. Lekin ota-onasi Londonlik edi. Yosh Redyardning Bombeydagi bolalik yillari nihoyatda unitilmas baxtli onlarga boy

bo`lib, u ajib ohang va manzaralardan bahramand bo`lardi. Redyard 6 yoshga to`lganda ota-onasi uni qattiqroq usullarda tarbiyalash maqsadida Angliyaga yuborishgan va u Londonda kapitan Proys Ejer xonadonida yashagan.¹ Redyard 12 yoshga to`lganda Baydford yaqinidagi Birlashgan Harbiy kuchlar kollejiga kiradi va u yerda otasining do`sti Kormel Prays uning adabiy qobiliyatini kuchaytiradi. Redyard 16 yoshga kirganda ota-onasi yashayotgan joy Lahorga qaytadi. O`zining qisqa bo`sh vaqtlarida ko`pgina ajoyib she`rlar va hikoyalar yozadi. Ushbu hikoyalar va she`rlarning to`planib kitob tarzida chop etilishi Redyardning shuhrat qozonishiga asos bo`ldi.

Kipling 1889-yilda Angliyaga qaytdi va “Kazarma balladasi” asari va bir necha mukammal hikoyalari unga keskin mashhurlikni olib keldi. Amerkalik do`sti va adabiy hamrohi Volkot Beylstarning vafotidan so`ng uning singlisi Kerriga 1892- yilda uylanadi. Dunyo bo`ylab sayohatdan so`ng, xotini Kerrining AQShga Botlborodagi oilaviy uyiga qaytadi va u yerda “Captain Courageous” va “The Jungle Book ” asarlarini yozadi. Qayn-akasi bilan kelishmovchiliklar sababli Redyard Kipling 1896-yilda Angliyaga qaytadi. 1899-yilda qizi Jozefinaning halokatli o`limiga qadar yozuvchining hayoti xursandchilikka boy va qoniqarli edi. Jozefinaning o`limidan so`ng Redyard Kipling uchun hayot hech qachon avvalgidek bo`lmadi.²

Redyard Kiplingning “Parishonxotir tilanchi” (“The absent-minded Beggar”) she`ri “Bur” jangida Britaniya askarlari foydasiga katta miqdorda mablag` olib keldi. R. Kipling Birinchi jahon urushi bo`lishini oldindan ko`ra oldi va xalqni tayyorgarlik ko`rishga ehtiyoj borligi haqida ogoh etishga harakat qildi. 1915-yilda ikkinchi bor 18 yashar o`g`lini “Lu” jangida yo`qotishdan aziyat chekdi. Shunga qaramay Kipling yozishda davom etdi. Uning urushdan keyin yozilgan hikoyalari uning eng yaxshi asarlari hisoblanadi. Shuningdek , yozuvchi Janubiy Afrikadagi Armiya Gazetasi uchun yozgan. Kipling Imperial

¹ Miraziz A`zam. Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.31.

² www.kiplingsociety.co.uk.

Vo Greyvz Kommissiyasida ishlagan va qirol Jorj V bilan yaqin do`st tutingan. U dunyo bo`ylab sayohatlar qilgan.

Redyard Kipling faqat shoir emas, katta nosir ham edi, ko`pdan-ko`p chiroyli qissa, hikoya va ertaklar yozib qoldirgan. Uning “Maugli”, “Rikki-Tikki-Tavi” ertak qissalari XX asrning 70 yillaridanoq o`zbek tilga tarjima qilingan va nashr etilgan. Keyingi yillarda yana uning “Yer tepingan parvona”, “Kitga bunaqa xartum qayoqdan kelgan?”, “Karkidonga bunaqa teri qayoqdan kelgan”, “Tuyaga o`rkach qayoqdan kelgan?” kabi ertaklar o`zbek tiliga tarjima qilindi.

R.Kipling bolalarga bag`ishlangan she`rlarida, xoh she`r kichik yoshdagilar uchun, xoh kattaroq yoshdagilar uchun bo`lsin, ularning aniq holatini mahorat bilan, goh kinoyali, goh yoqimli kulgi tabassum bilan ifodalaydi. Poklik, ozodalik, mehnatsevarlik g`oyalarini ham xuddi shu yo`l bilan ilgari suradi. Redyard Kipling 1936-yil 18-yanvarda vafot etdi. U 1907-yilda adabiyot bo`yicha Nobel mukofotiga sazovor bo`ldi.¹

Angliya bolalar adabiyoti mashhur vakillaridan yana biri Alan Miln juda ko`p pyesalar, she`rlar va nasriy asarlar yozgan. XX asr boshida bolalar uchun “Biz juda kichikligimizda” va “Biz oltiga kirganimizda” degan ikki kitob chiqarganda, faqat bolalar o`rtasida emas, kattalar orasida ham dongdor bo`lib ketdi.

Alan Miln Britaniya kino olamidagi bir necha film ssenariylarining muallifi hamdir. Ayrim filmlari Britaniya film institutining arxivida saqlanib qolgan. Dastlab dramaturg sifatida nom qozongan Alan Miln o`zining Vinni Pux asarini chop etishi bilan katta muvaffaqiyatga erishdi va mashhurlik cho`qqisiga yetdi. Keyinchalik bu asar ko`p tillarga tarjima qilinib butun dunyoga tanildi. Alan Milnning bu asari, ichida she`rlari ko`p bo`lgan 18 ta sarguzasht ertakchadan iborat. Miln bolalar dunyoni qanday tushunishini, qanday idrok etishini juda yaxshi biladi. Kichkintoylarning topqirlikka oid

¹Miraziz A`zam. Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.31.

o`yinlari, so`z ixtiro qilishlari, xalq og`zaki ijodining turli andoza va yo`riqlaridan foydalanish- mana shular alan Miln ijodiyotining o`ziga xos tomonlaridir.¹

A.Miln “Vinni Pux” asari yaratilishiga qadar dramaturg sifatida Atlantika okeanining ikki tomonida ham yuqori obro`ga erishgan, detektiv yo`nalishdagi ajoyib ijod mahsulini yaratgan. O`zi istagan yo`nalishda asar yozishni xush ko`radigan va har gal yozish usulini o`zgartiganda kitobxonlarni jalb qila olgan A.Miln uchun bolalar kitobini yaratishdagi keskin muvaffaqiyati alam va jahl manbai bo`lgan. Bir kuni Miln o`ziga xoslikdan xoli bo`luvchi asarlar yaratishga xohishi yo`qligini aytadi, chunki uning ilhom manbailaridan biri – uning o`g`li ulg`ayayotgan edi.

Ingliz bolalarining sevimli yozuvchisi va shoiri Robert Lyuis Stivenson 1850-yil Shotlandiyada tug`ilgan. Hayotlik davomida ham taniqli bo`lgan R. Stivenson hozirda dunyo bo`ylab asarlari eng ko`p tarjima qilinadigan yozuvchi shoirlar orasida 26- o`rinni egallaydi.² U o`z nasriy asarlarida romantik yo`nalishda Angliyaning turmush tarzini va insonlarning xarakterlarini ochib berishga intilgan. “Xazinalar oroli” (“Treasure Island”), “O`g`irlangan odam” (“Kidnapped”), “Qora o`q” (“The Black Arrow”) va boshqa bir qator romanlari bilan sarguzasht syujet ustasi sifatida tanildi. R. Stivensonning asl qo`lyozmalarining yarmi yo`qolgan.

Yozuvchi va shoir Stivensonning “Bolalarning she`riy gulzori” nomli she`r to`plamida ham, romanlaridagi kabi, romantic shon-sharaflarga o`raglan insonlar timsollari yaratilgan. To`plamdagi kichik qahramonlar olami nurli va quvonchlidir. Stivensonning she`rlari benihoya musiqiy, tiniq bo`lib, borliq dunyoni ko`zga ko`rinadigan shirin xayollar va tovushlar olamida jonlantiradi. Daryolarning shovullashlari, yomg`irlarning shitir-shitiri, dengiz to`lqinlarining

¹Miraziz A`zam. Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.78.

² www.scottishpoetrylibrary.org.uk

sirli sadolari tabiiy ravishda yoh kitobxon xayoliga o`mahib qoladi. ¹Stivenson she'riyati xalq og`zaki ijodi an'analariga uyg`unligi bilan ajralib turadi.

1.2. Miraziz A'zamning o`zbek tarjimashunosligiga qo`shgan hissasi

Insoniyatning eng qadimiy faoliyatlaridan hisoblanmish tarjimashunoslik dunyo xalqlari uchun o`zaro madaniy, iqtisodiy, ilmiy va adabiy aloqaning almashinuviga va shu orqali yuksalishga eltuvchi kuchli qurolga aylandi. Tarjima murakkab sohalardam biri hisoblanadi va bir tilda yaratilgan matnning shakl va mazmunini saqlagan holda boshqa til unsurlari yordamida qayta qurish tarjimondan yuksak ilmiy va adabiy bilim, mahorat talab qiladi. Tarjimachilik faoliyati so`nggi yillarda O`zbekistonda ham jadal sur`atlarda rivojlanmoqda.

Tarjima tarixi turli xalqlar adabiyotlarining bir-biridan ajralib qolganini emas, balki aksincha hamma vaqt – juda qadim zamonlardan tortib hozirgi kungacha, bir-biriga intilib, yaqinlab borgani, bir-biridan ta`sirlanib taraqqiy etganligini isbotlamoqda. Ilk tarjima namunalari odamodning yodida qolmagan. Lekin ular odam, non, ota, ona, osmon, yer, yo`l, ot kabi so`zlardan va ularning boshqa tildagi tarjimalaridan iborat bo`lganligini tasavvur qilganligini tasavvur qilish qiyin emas. Bu so`zlardan tarjimalar folklor asarlariga o`tganligini ham andak fantaziya ishlatib ko`z o`ngimizda keltirishimiz mumkin.

Bu shunday yirik madaniy hodisaki, tarjima adabiyotlari tarixdan ijtimoiy tuzumlar, tabaqalarning o`zgarishlarinigina emas, insonning ongida kechgan o`zgarishlarning evolyutsion jarayonlarni ham aniq kuzatish mumkin. Ayrim xalqlar o`z taraqqiyotlarida oldinroq ilgarilab ketgandirlar, ayrimlari orqaroqda qolgandirlar, bundan qat'iy nazar, tarjima onglaridagi, fikrlardagi, ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi, ilm-fanlardagi o`zgarish jarayonlariga juda chuqur va har tomonlama ta'sir ko`rsatgan deb ayta olamiz.

Tarjima tarixi Eng Qadimi Dunyo, O`rta Asrlar, Yangi va Eng Yangi deb ataladigan, juda uzoq davom etadigan tarixiy davrlarni o`z ichiga oladi. Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha tarjima Yer yuzining O`rta Yer dengizi havzasi,

¹Miraziz A'zam. Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B. 25.

Sharqda Ikki Daryo Oralig`ida yashovchi xalqlar (shumerlar, suryoniyalar, bobulonliklar, ossuriyaliklar, xetlar), Misr, Eron, Hindiston, Xitoy, Turon mamlakatlari mintaqalarida ayni bir vaqtning o`zida ham ijtimoiy madaniy aloqalar vositasi ham yozma adabiyotning bir turi, tarmog`i sifatida rivojlandi.¹

Tarjimonlik ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan uzviy bog`liq, ya`ni madaniyat, san`at va adabiyot tarixi bilan uzviydir. Arab yurishlari siljib borgan mamlakatlarda, shu qatorda hozirgi O`zbekiston hududida Islom dini o`rta asrlarda yagona dinga aylandi, arab tili esa ilm-fan maqomiga aylandi. O`rta asrlarda Markaziy Osiyo madaniy hayotida tarixiy-adabiy janrlarga daxldor asarlar tarjimalari sezilarli o`rin tutdi.

VII asrlarda fan, san`at, adabiyot, madaniyat yuqori darajada rivojlanib, Farobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mashhur olimlar yetishib chiqdi. Biz ularni qadimiy tarjimachilik madaniyatimizni boyitgan ilk tarjimonlar sifatida qadrlaymiz va Sharq Renessans davrining vakillari deb qaraymiz. Abu Rayhon Beruniy qomusiy olim bo`lib, tarjimachilik haqidagi fikr-mulohazalarini yozib qoldirgan. Beruniy o`zining “Hindiston” asarida Gomerning “Iliada” va “Odissey” asarlaridan parchalar keltirgan. Biz uning kitoblarida yunon, rum va hind yozuvchilarning asarlaridan tarjima qilingan parchalarni ko`rishimiz mumkin. Uning tarjimalari orasida “Qissai Vomiqu Uzro”, “Qosimus-surur va aynul-hayot”, “Hurmizdiyor va Mehriyor”, “Bomiyonning ikki sanami”, “Dah, Moh va Kiromiduht”, “Nilufar” eposlarining tarjima kitoblari bor. U bu asarlarni fors tilidan tarjima qilgan bo`lib ular “qiziqarli va hayajonli hikoyalar deb “Fehrastda” ta`kidlangan. Beruniy 60dan ortiq asarlarni tarjima qilgan va hind tilidan arab tiliga o`girilganlari “Pantajala”² nomi biln mashhurdir.

Tarjimonchilik faoliyatida katta iz qoldirgan Mahmud Koshg`ariy ham o`zining “Devonu lug`atit-turk” asarida turk qabilalarining shevalariga xos so`zlarining arab tilidagi ekvivalentlarini keltirgan. Abulqsim Mahmud bin Umar Zamaxshariy Markaziy Osiyoda ilk bor arabcha-forscha “Muqaddimat-ul

¹G`ofurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur Bo`stoni, 2012. - B.51.

²Buyuk siymolar, allomalar. Toshkent: 1995, 1 kitob 48b.

adab” (“Arab ilmiga kirish”) lugʻatini yaratgan. Olim soʻzlarning etimologiyasiga alohida eʼtibor qaratdi.

Xorazmda tarjimonlik maktabining asoschilaridan biri Muhammad Rizo Ogahiydir. Ogahiy oʻzbek tiliga Sharqning mashhur “Xaftpaykar”, “Guliston”, “Shoh va Gado”, “Yusuf va Zulayho”, “Bahoriston” kabi Ganjaviy, Sheroziy, Dehlaviy, Jomiy, Hiloliy asarlarini va “Zafarnoma”, “Nodirnoma”, “Ravzat us-safo” kabi tarixiy asarlarni tarjima qilib, XIX asrning buyuk tarjimoniga aylangan. Ogahiy mahoratli tarjimon sifatida 19 ta asarni fors tilidan oʻzbek tiliga oʻgiran va madaniy merosimizni boyitgan.¹

Ogahiy Munis Xorazmiy oxiriga yetkazmagan asari “Ravzas us-safo”ni 2-3 jildlarini tarjima qilgan. Ogahiy quyidagi tarixiy asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan: “Nodirnoma” (Muhammad Mahdixon), “Zafarnoma” (Sharafiddin Ali Yazdiy), “Tazkirai Muqimxoniy” (Muhammad Yusuf Munshiy), adabiy asarlardan: “Haft paykar”(N Ganjaviy), “Guliston”(S.Sheroziy), “Hasht-bihisht” (Xusrav Dehlaviy) “Yusuf va Zulayho”, “Solomomon va Ibsol”, “Bahoriston” (A.Jomiy), “Badoye ul-vaqoye”, “Qobusnoma” (Kaykovus) va boshqalar.²

XX asrning 30-yillardan ingliz adabiyoti namunalari tarjima qilina boshlandi. Hozirgi kunga qadar bir qancha Amerika va Lotin Amerika yozuvchilarning, jumladan, 20 dan ortiq ingliz yozuvchilari va shoirlarning kitoblari oʻzbek tiliga oʻgirilgan. “Robinzon Kruzoning sayohatlari” asari oʻzbek tiliga ingliz adabiyotidan qilingan ilk tarjimadir. Bu kitobni 1911-yilda oʻzbek tiliga Muhammad Fozil Otabek ozarbayjoncha bayon tarjimadan agʻdargan.

Oʻzbek adabiyotida badiiy tarjimachilikdagi ilk yorqin misollar Xamza Xakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Hamid Olimjon, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Zulfiya boshqa koʻplab ijod ahllarining qalamiga mansubdir.

¹Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N.Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Boʻstoni,2012.-B.89.

²Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N.Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Boʻstoni,2012.-B.90.

1950- yillarning oxiriga kelib O`zbekistonda tarjima tarixi tadqiq etila boshlandi, taniqli yozuvchi olim va tarjimon Jumaniyoz Sharipov “O`zbekistonda tarjima tarixidan”, “Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar” kabi monografiyalar chiqardi. Taniqli olim va fan tashkilotchisi G`Salomov “Tarjimaga nazariyasiga kirish”, “Tarjima nazariyasi asoslari” kabi darslik va qo`llanmalar yozdi, “Tarjima san’ati” kabi turkum to`plarini chiqarishga bosh-qosh bo`ldi.

O`tgan asrning o`rtalarida tarjima nazariyasini keng qamrovli tadqiq etish davom etdi, ularda nazariyaga oid ko`p ma`lumotlarga oydinlik va aniqlik kiritildi, tarjimonlar faoliyati o`rganildi. XX asrlarda O`zbekistonda faol tarjimonlik maktabiga asos solindi.

N. Kamolov, X.Karomatov, N.Vladimirovalar tarjima tarixini tadqiq etish ishini boshladilar. Hamidulla Kristofer Marloning “Amir Temur” asarini o`rgandi, o`zbek tiliga o`girilgan matnning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatib berdi. N.V.Vladimirova esa ayniqsa G`arb bilan Sharq adabiyotini tarjima qilish sohasidagi ba`zi muammolarga yechim topishga intildi. G`aybulla Salomov O`zbekistondagi tarjima nazariyasi asoslari asosida ilmiy faoliyat olib bordi. U tarjimada milliy xususiyatlarning aks etirishga katta e`tibor bergan va frazeologizmlarni tarjimada ifodalash yo`llari, she`riy tarjimalarning o`ziga xosliklari ustida ishlagan. Shuningdek, G`aybulla Salomov chet el tarjimonlari tomonidan qilingan “Boburnoma” tarjimalarini mukammal tahlil qilib chiqdi. 1922-yilda “Boburnoma” hozirgi fors tiliga Murod Qarluqi tomonidan tarjima qilingan. Qarluqning tarjimasini G`aybulla Salomov asl nusxaga yaqinroq deb topdi. “Yaqinroq so`zining ma`nosi shundaki, u aniq, ya`ni to`g`ridan- to`g`ri tarjima qilingan deb xulosa chiqargan.¹

Jumaniyoz Sharipov “Badiiy tarjima va mohir tarjimonlar” kitobida Ogahiy, Mirtemir va Zulfiyaning ijodiy mahoratini ochishga harakat qildi.

¹ G`ofurov I., Mo`minov O., Qambarov N.Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Bo`stoni, 2012.-B.90.

Badiiy tarjimaning nazariy asosini, she'riy tarjimaning milliy uslubini, tarixiy – nazariy tarjima metodologiyasini, tarjimonlar mahorati qirralarini tahlil qildi.¹

1970-1975- yillarga Gyotening “Faust” (E. Vohidov), Dantening “Ilohiy komediya”, “Do`zax”(A.Oripov), Nozim Hikmatning “Inson manzaralari”(R. Parfi) kabi asarlarning o`zbek tilida chiqishi she'riy tarjimaga yangicha yondashuvlar paydo bo`lgani, Navoiy an`analari o`z ijodiy davomini topganini ko`rsatdi.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar she'riyatida shoir Miraziz A'zamning o'z o'mi bor. Bu albatta, uning izlanishi, mehnatkashligi, bolalarni va ularning adabiyotini qattiq sevishidan dalolatdir. Ijodkor bolalar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlik, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo'lish, yaxshi o'qish uchun harakat qilish, kurashish kabi masalalami ko'proq ochib berishga harakat qiladi. Miraziz A'zam 1936 yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Maktabda o'qib yurgan kezaridayoq she'riyatga qiziqdi. She'riy mashqlarini Quddus Muhammadiy va keyinchalik Qudrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to'garakda sinovdan o'tkazar, ijodiy izlanish, o'qish va o'rganishni qizg'in davom ettirar edi. Adabiyot va she'riyatga bo'lgan chanqoqlik uni ToshMUga yetakladi. Uning ijodi talabalik yillaridayoq boshlangan. Uning birinchi she'ri 1960 yilda “G'alati tush” nomi bilan chop bo'lgan. Adabiy mashqlari bolalar va o'quvchilar gazetalarida, “Gulxan”, “G'uncha” jumallarida bosila boshladi. Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan M. A'zam bir qator gazeta va jumallarda ishladi. Shoirning “Metallurg”, “Aqlli bolalar”, “Senga nima bo'ldi?”, “G'alati tush”, “Er aylanadi”, “Erga dovruc solamiz”, “Haqiqatning ko'zlari”, “Sabot”, “Tuyg'ular”, “Bir cho'ntak yong'oq” kabi to'plamlari bolalar kitob javonlaridan mustahkam o'rin olgan. Miraziz A'zamning juda ko'p she'r va qo'shiq, ertak, dostonlari kattakichik bolalarga bag'ishlangan. U har bir asarida bolajonlar uchun, albatta, bir yangilik, bir yaxshi gap aytish ishtiyoqi bilan qaynab toshadi va buning uddasidan chiqadi. Masalan, «Yer aylanadi» she'rini olib ko'raylik. Bunday olib

¹ G'ofurov I., Mo`minov O., Qambarov N.Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.-B.91.

qarasangiz, bu bir oddiy gap. Axir necha ming asrdan beri u aylanadi, yana aylanaveradi, bu haqda jozibali she'r bo'lishi mumkin emas, degan tushuncha xayolingizdan o'tadi. Lekin she'mi o'qiydigan bo'lsangiz sizning tasavvuringiz butunlay o'zgaradi. Murg'ak qalb u yoqda tursin biz kattalar ham yerning aylanishi, onlarning o'tishi, shamolning esib turishi bilan o'sib ulg'ayishimiz, kamol topishimiz, bunyodkorlik ishlarimiz ko'z o'ngimizdan o'tadi. Qilgan yaxshi-yomon ishlarimizni o'ylaymiz. “Yer aylanadi” — xuddi shu haqda bahs yuritadi:

Asta-asta shamol esadi,

Asta-asta yer aylanadi.

Asta-asta odam o'sadi,

Asta-asta yer aylanadi.¹

Kichkintoylar ko'pincha hayot murakkabligidan bexabar bo'ladilar. Ular kattalarning ko'magida, o'zlari tinglagan badiiy asarlari yordamida olam mo`jizalari, turmush bilan tanishib boradilar. Miraziz A'zamning “Bedananing buvisi” she'ri kichik yoshdagi bolalaiga juda qo'l keladi. Bu she'r xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida yaratilgan. Yosh kitobxonlar she'rda bedanalarning turmush tarzlari bilan yaqindan tanishib oladilar. Xuddi insonlar kabi ularning ham qavm-qarindoshlari, keksa-yoshlari bo'lishini, kasal-sog' yurishlarini buvi bedana kechmishlari orqali tushunib yetadilar. Buvi dardga chalinib, og'ir kasal bo'lib qoladi, tomog'idan ovqat o'tmaydi. Hammaning tinchligi, oromi buziladi, har kim qo`ldan kelgancha unga madadkor bo'lishga intiladi. Bu epizod chiroyli va ta'sirli chizilgan: Bedananing otasi bor ekan, nor ekan, Onasiga oriyat yor ekan, yor ekan. Dori-darmon, o`t-o`lan keltirib, keltirib, Qari qushga tutishib, ichirib, yedirib, Aylanishib boshida turdilar. Sog'ayishning chorasini ko'rdilar, ko'rdilar... Va-vaq, va-vaq, Bit-bil-diq. Biz har doim bolalar adabiyotida o'y-o'ylash, xayol surish, o'zining uchqur xayollari bilan yashash haqida yozilgan asarlarni qizg'in qo'llab quvvatlaymiz. Miraziz A'zamning ham “Xayol surish” she'rining qahramoni har bir narsani tezroq bilib olgisi, uning poyoniga yetgisi

¹www.Ziyonet.uz.

keladi. Lekin u qanchalik o'ylanmasin, xayol surmasin, aqliy tafakkuri hali to'la rivojlanmaganligi sababli ko'p narsalami tushunmaydi, ojizlik qiladi. Ota o'g'ilini unchalik o'ylamaslikka chaqiradi. Otaning nasihati bilan bola o'zini tinchita olmaydi: Kun qisqa qanday qilib kun chiqadi, deb o'ylayman, Tun cho'zilsa, nega tun cho'zildi, deb o'ylayman.¹ Uni xayol qilaman, Buni xayol qilaman o'ylayman, bari bir, o'ylayman. Miraziz A'zamning «Biz yengamiz bo'ronlami» she'ri bugungi mustaqillikka juda qiyinchilik bilan, kurashlar bilan yetib kelganligimizni jarangdor misralar bilan chiroyli ifodalab beradi: Bizni bosdi dovullar, sellar - Omon chiqdik bo'ronlardan, Omon yashar botir ellar – Qo'rqmas vahshiy hayvonlardan, Qorli, muzli cho'qqilar ham Qolib ketar poyimizda. Jasur qo'shiq bizga hamdam Har bir qo'ngan joyimizda.² Shoir bu bilan chegaralanib qolmaydi. Hali oldinda qiladigan ishlarimiz, ulug' maqsadlarimiz borligini ta'kidlaydi, bolalarni yuksak axloq-odobli bo'lishga, kattalaming ishlarini davom ettirishga chorlaydi: Maqsadimiz tog'day ulug' — Chambarchasdir tutash qo'llar. Ozodlikning yo'li qutlug' — Olg'a, do'stlar, og'aynilar!³ Miraziz A'zamning “Qirq bolaga qirq savol”, “G'alati tush”, “Nurxon bilan Burxon”, “Ota bilan bola”, “Bir cho'ntak yong'oq” (turkum), “Alla”, “Bola va ona”, “Yo'tal bobo” kabi she'r va qo'shiqlari bolalar adabiyotida katta o'rin egallaydi. “Asror”, “Erk qushi”, “Ona yurt osmonida”, “Antiq” kabi doston, ertak-dostonlari ham bolalarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Miraziz A'zam haroratli, shijoatli publitsist hamdir. Uning madaniy-adabiy merosni ko'z qorachig'idek asrashga da'vat etuvchi bir qator tarixiy-adabiy maqolalari shular jumlasidandir. Adib mohir tarjimon, adabiyot va madaniyatning hormas targibotchisi ham. Uning turk, rus, nemis adiblaridan qilgan tarjimalari, ayniqsa, islom madaniyatiga oid tarjimalari ko'pchilik mutaxassis va oddiy o'quvchi ixlosini orttirdi. Miraziz A'zam ijodi gullagan, sermahsul, serfayz bo'lishiga ishonsa bo'ladi.

¹ www.Ziyonet.uz

² www.Ziyonet.uz

³ www.Ziyonet.uz

Miraziz A'zam 50 yildan buyon o'zbek o'quvchilarini jahon bolalar adabiyoti bilan tanishtirib kelmoqda. So'nggi yillarda bir qancha o'qituvchilar, o'quvchi va talabalar, adabiyot mutaxassislari bolalar adabiyotiga oid barcha tarjimalarni jamlab berishni yozuvchidan so'radilar. Keyingi ikki yil ichida ko'pchilikning mana shu ehtiyojlarini hisobga olib, yozuvchi va tarjimon M. A'zam tarjimalaridan to'plam tuza boshladi. Va nihoyat mazkur to'plam "Jahon bolalar adabiyoti" nomi ostida vujudga keldi, va u o'n tomdan iboratdir. To'plamdan Angiya Barto, Korney Chukovskiy, Redyard Kipling, Robert Stivinson, Alan Milln, Nozim Hikmat, Janni Rodari va boshqa ko'pgina mashhur yozuvchilarning asarlarini topishimiz mumkin.

Kitob tayyor bo'lganda undagi kamchiliklar ko'zga tashlandi. Ispaniya, Vengriya, Portugaliya, Gretsiya kabi Yevropa mamlakatlaridan, Afrika yurtlaridan, Chilidan boshqa Janbiy Amerika mamlakatlaridan, Osiyoning Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Koreya kabi qator davlatlaridan, Avstraliyadan bolalar adabiyoti namunalari yo'qligi, bu yurtlarning tillarini biluvchi mutaxassislar uchun hali keng maydon ochiq qolganligini ko'rsatadi.

Tanlangan millatlarning bolalar adabiyoti namoyondalari va ularning faoliyati haqida to'laroq tasavvur uyg'otish va kitobning o'qishli bo'lishini ta'minlash maqsadida, kamida 5-6, ko'pida 10-15 she'r, ba'zan 1-2 bosma taboq hajmida 1-2 hikoya yoki bir necha ertak, doston va afsonalar tanlab tarjima qilindi.

1.3. Tarjimada leksik va grammatik transformatsiyalar

Keyingi paytlarda yuzaga kelayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor berilmoqda, lingvistik tarjimashunoslik bo'yicha yaratilayotgan ko'pchilik tadqiqotlarda tarlima nazariyasi va amaliyotining juz'iy masalalari bilan bir qatorda mazkur sohaning mohiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko'lamda bosh qotirilmoqda. Bu hol

lingvistik tarjimashunoslikning tadqiqotchilar e'tiborini borgan sari ko'proq o'ziga tortayotganligidan dalolat beradi.¹

Ko'pgina madaniy odatlar oddiy tilda tasvirlanadi. Edvard Sepir tilni ijtimoiy haqiqatga yo'l boshchi deb ataydi. Insonlarning tajribasi jamiyatning til odimlari bilan keng miqyosda belgilangan va har bir tizim alohida haqiqatni tasvirlaydi. Aynan bir jamiyat va har bir tizim alohida haqiqatlarini aks ettiruvchi ikki til bir-biriga o'xshamaydi. Turli jamiyatlardagi foydalanilgan so'zlar ham turlichadir. Shu sababdan, til madaniyat yuragidir.²

Eng mos muqobilni topish tarjimada juda muhim sanaladi, bu sohada tilshunoslik nazariyasining hissasi beqiyosdir. Tarjimon odatda asliyat tilidagi eng yaqin muqobilni tarjima qilinayotgan tilga moslashga harakat qiladi. Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish o'byekti bo'lishi zarur. Unda tahlil va uyg'unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e'tibor qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Muqobillar ma'nosi ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'lsada, lug'atga murojaat qilish ham muhim sanaladi. Tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilish mumkin emas. So'z va uning tajimolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi shart. Aks holda tarjimon "tarjimonning soxta do'stlari" tuzog'iga tushishi muqarrar.³

I. G'ofurov, O. Mo'minov va N. Qambarovning "Tarjima nazariyasi" kitobida takidlanganidek, asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli hisoblanadi. So'z ma'nosining qaysi biri qo'llanganini aniqlash tarjimonning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Bunda tarjimonni adashishdan, noto'g'ri so'z tanlashdan

¹ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik.-Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2005.-B.8.

² G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.-B.29.

³ G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.-B.104.

saqlaydigan til hodisasi bu –kontekst hisoblanadi. Ko`chma ma'noda aytadigan bo`lsak, kontekst tarjimonning yo`lchi yulduzi, mayog`idir. Kontekst tarjimonning eng ishonarli quroli sanaladi. Tilshunoslikda kontekstning ikki turi mavjud: lingvistik va ekstralingvistik. Kontekstda so`zlar o`z ma'nosida qo`llanmaganda, ya'ni ko`chma ma'noda qo`llanganda tarjima muammosi paydo bo`ladi. Ba'zi hollarda so`z ma'nosini to`liq anglash uchun butun bir gapni tushunishimiz lozim bo`ladi. Ko`p ma'noli so`zlardan keragini tanlashda kontekstning ahamiyati katta. Masalan ingliz tilidagi "bus" so`zini olaylik. Bu so`z ot ma'nosida "aftobus yoki trolleybus" so`zining qisqargan shakli. O`z ma'nosida esa faqat Amerika va Kanadada "bolalarni bir hududdan boshqa hududga aftobusda tashimoq" ma'nolariga ega. Bundan tashqari bu so`z talabalar oshxonasidagi lavhalarda ishlatilib, "o`z-o`ziga xizmat qilish, ya'ni uni ishlatib bo`lgandan keyin bo`shagan idishlar bilan joyiga olib borib qo`ymoq" ma'nolariga ega. Muayyan so`z tarjimasi uning kontekstdagi tahlilidan boshlanadi va bu tarjimada tegishli so`zni tanlash imkonini beradi.

Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga mos keladigan boshqa bir tushunchani topish ancha mushkul vazifa hisoblanadi. Shu sababli ba'zan tarjimada so`zga so`z, so`zga so`z birikmasi, so`zga gap to`g`ri kelishi mumkin. Bunda ikki va undan ortiq so`zdan iborat bo`lgan frazeologik birlik bitta so`z ma'nosiga to`g`ri kelgan bo`lishi lozim.

Tarjima qilish jarayonida, ikki tilda bir so`zning barcha ma'noviy farqlarini qamrab olishning imkoni yo`q. Asliyatdagi so`z ma'nosi tarjima tilida to`liq ekvivalent, qisman ekvivalent ega bo`lishi yoki hech qanday ekvivalentga ega bo`lmasligi mumkin.¹

Agar asliyatdagi so`zga tarjima tilida bitta so`z to`g`ri kelsa, u holda ikki tildagi so`z ma'nolari to`liq ekvivalentga ega bo`lgan hisoblanadi. Bunday so`zlar sirasiga, odatda, atoqli otlar, geografik va joy nomlari, korxonalar, tashkilot, muassasa, kema va mehmonxona nomlari va shu kabilar kiradi.

¹Xudoyqulov A.E. Collection of lectures on the theory and practice of translation –Termiz: 2007.-B.27.

Ekvivalentlar aksariyat hollarda monosemantik, ya'ni bitta ma'noga ega bo'lgan so'zlardir.

E.Aznaurovaning "Theory of translation" kitobida keltirilishicha, agar aslyatdagi so'zga tarjima tilida bitta so'z qisman to'g'ri kelsa, bunda biz qisman ekvivalentlar haqida fikr yuritishimiz lozim. Tarjima nazariyasida qisman ekvivalentlarning uch turi ham ajratiladi. Bunga sabab bir tilda boshqa tilga to'g'ri keladigan, ekvivalentdan tashqari yana bir nechta so'z ma'nolaridan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur ko'p ma'noli so'zning bittasi ekvivalent, qolganlari esa qo'shimcha ma'no sifatida namoyon bo'ladi. Semantik munosabatning ikkinchi variant qisman ekvivalent so'zga to'g'ri keladigan ma'noning kesishish hodisasi. Ikki tildagi muayyan so'z bir xil ma'no yoki ma'nolarga ega bo'lishi mumkin va shunday bo'lsa ham ayni paytda ularning bir-biriga o'g'ri kelmaydigan ma'nolari ham bo'lishi mumkin. Masalan ingliz tilidagi "ball"¹ va "ball"² omonim so'zlarni oladigan bo'lsak, quyidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin: "ball" koptok, to'p" va "ball"² "bal (raqs kechasi)". O'zbek tildagi "bal" sozi faqat raqs ma'nosiga ega. Demak bu so'zning muqobilini topish kontekstning ahamiyati katta. Munosabatlarning uchinchi variant eng murakkab ekvivalentga kiradi. Gap shundaki, turli xalqlar obyektiv reallikni turlicha qabul qiladi va uni tilde turlicha, o'ziga xos ravishda aks ettiradi. Masalan, o'zbek yilidagi "amma, xola", so'zlariga "aunt", "tog'a, amaki" so'zlariga "uncle", "olcha, gilos" so'zlariga "cherry" kabi bitta so'z to'g'ri keladi.¹

Qisman ekvivalent bo'lgan so'zlar orasidan eng to'g'risini tanlash tarjimaning diqqat markazidagi hal etish zarur bo'lgan dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Bu tarjimada ekvivalenti (muqobili) bo'lmagan so'zlar tarjimasiga bevosita aloqadordir. Bu so'zlar sirasiga boshqa davlatlarda qo'llanmaydigan ismlar, geografik va joy nomlari hamda xos so'zlar kiradi. Xos so'zlar tarjima nazariyasi adabiyotida realiyalar sifatida qo'llaniladi. Bunga bir tomondan,

¹G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.-Toshkent:Tafakkur Bo'stoni,2012.-B.108.

ingliz tilidagi lobby, muffin, drugstore, ikkinchi tomondan o`zbek tilidagi tandir, somsa, qiz uzatish, uloq va shu kabi tushunchalar kiradi.

Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug`atlar ma'lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatd lug`atlarda so`z ma'nosining muqobillari beriladi. Tarjima jarayonida tarjimon ko`p ma'noli so`zning qaysi ma'nosi qo`llanganligini kontekst asosida o`zi aniqlamog`i lozim.¹

I. G`ofurov, O. Mo`minovning "Tarjima nazariyasi" kitobida keltirilishicha, leksik transformatsiyalarning besh turi mavjud bo`lib, ular: konkretsiyalashtirish, umumiy lashtirish, tushurib qoldirish, ikki hodisa o`rtasidagi mantiqiy hodisaga asoslangan transformatsiya va antonomik tarjima. Shu o`rinda shuni takidlab o`tish joizki, mazkur kitobda antonomik tarjima leksik transformatsiya bo`lish bilan birga grammatik transformatsiya ham bo`lishi mumkin.

Ikki tildagi gap tuzilishi va ma'nosidagi farqlar bo`lishiga qaramay, tarjimon ekvivalentlikka erishih maqsadida turli xil lingvistik transformatsiyalardan foydalanishi kerak. Tarjimon turli so`zma-so`z, g`aliz birikmalardan qochish, uning adabiy hamma tushunadigan, yorqin so`zlarni trjima qilish uchun quyidagi leksik transformatsiyalardan foydalanadi. Zoya Proshinaning fikriga ko`ra esa leksik transformatsiya quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Leksik almashtirish (lexical substitution)
2. Qo`shish (supplementation)
3. Tushurib qoldirish (omission)²

I. Leksik almashtirishda so`zlar va turg`un so`z birikmalari o`zlarining ekvivalenti bo`lmagan boshqa so`zlar bilan tarjima qilinadi. Leksik almashtirishda uch usuldan foydalanishi mumkin.

a) Birinchi usulda keng ma'noli yoki ma'nosini aniqlash qiyin bo`lgan so`zlarni tarjima qilishda qo`llaniladi. Transformatsiyaning bu turi aslyat

¹ G`ofurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -Toshkent: Tafakkur Bo`stoni, 2012. -B.108.

² Zoya Proshina. -Vladivostok: Far Eastern University Press. 2008. B.146

soʻziga aniqlik kiritish yoki uni konkretlashtirganda qoʻllaniladi. Bu aksariyat hollarda ingliz tilidagi feʼllarni oʻzbek tiliga tarjima qilish jarayonida ishlatiladi. Ingliz tilidagi feʼllar odatda umumiy va noaniq holda qoʻllaniladi. “to be” feʼlini olsak, uning quyidagi xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu feʼlning asosiy maʼnosi oʻzbek tilidagi “boʻlmoq” feʼliga toʻgʻri keladi. Biroq bu feʼlning maʼnosi shunchalik kengki, oʻzidan keyin kelgan soʻzga qarab, maʼnolari turlicha tovlanadi. yordamchi feʼl sifatida bu ingliz tilida eng koʻp qoʻllaniladigan va keng maʼnoli boʻlgani uchun transformatsiyaga uchraydi.¹ Masalan: He is in the army – U armiyada xizmat qiladi.

b) Umumlashtirish (generalization) leksik almashtirishning ikkinchi turi boʻlib, asliyatda berilgan maʼnoda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangani bois bazi aniqliklar umumlashtiriladi. A Navajo blanket – jun adyol²

Ingliz tilida odamning boʻyi, ogʻirligi aniq raqamlarda berilishi qabul qilingan. Oʻzbek tilida boʻy balandligi novcha, baland, daroz soʻzlari, vazn esa ogʻir, yengil kabi aniqlovchilar bilan beriladi. Oʻzbek tilida boʻy va vaznga nisbatan ishlatilgan turli raqamlar ortiqcha hisoblanadi. Umumlashtirish soʻzning farq qiluvchi maʼnolarini tarjima qilishda ham keng qoʻllaniladi. Tarjima amaliyoti, aksariyat hollarda umumlashtirish tarjimaning pragmatik xususiyatlariga ham bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi. Masalan, asliyat matnidagi atoqli otlar oʻsha tildagi soʻzlovchilar uchun informativ ahamiyatga ega boʻlishi mumkin, lekin tarjima tilida bular hech qanday informativ ahamiyatga ega boʻlmaydi. Bular sirasiga firma nomlari, doʻkonlar nomi, mahsulotlar nomi kiradi. Oʻzbek kitobxoniga bu nomlar, birinchidan, nomaʼlum, ikkinchidan yuqorida aytilganidek hech qanday informativ qiymatga ega emas. Shuning uchun bu nomlarni tushurib qoldirib, ularning oʻrniga firma qanday mahsulot ishlab chiqarishi, doʻkon nomi egasining nomiga nima munosbat bilan bogʻliqligi haqida maʼlumot berib, tarjimada soʻzlarni umumlashtirib berish lozim boʻladi. Xalqaro hamjamiyatga maʼlum boʻlgan nomlarni transkripsiya

¹Gʻofurov I., Moʻminov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -Toshkent: Tafakkur Boʻstoni, 2012. -B.110.

²Zoya Proshina. -Vladivostok: Far Eastern University Press. 2008. B.146.

yoki transliteratsiya yo`li bilan berishning o`zi kifoya. Masalan, “Coca Cola”, “Pepsi Cola”, “Tayota” shular jumlasidandir.

c) ikki hodisa o`rtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Ulardan bittasi asliyat matnini atasa, ikinchisi uning tarjima variant deb hisoblaydi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi. Matndagi vaziyat o`z navbatida semantik jihatdan rivojlantiriladi. Agar vaziyat semantik jihatdan to`g`ri rivojlantirilsa, ya`ni asliyat matni va tarjima matnidagi fikrlar bir-birlarini semantik jihatdan sabab va natija sifatida bog`lasa, transformatsiya tarjima tili normalariga rioya qilgan holda matndagi mazmuni berishga xizmat qiladi.¹

2. Antonomik tarjima transformatsianing yana bir turi hisoblanib, bu ba`zi hollarda asliyatda qo`llanilgan so`z tarjimada antonim bilan almashtirilishini anglatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, agar gapda inkor so`zi bo`lsa u tarjimada tushrib qoldiriladi. Masalan, “Keep off grass-maysaning ustidan yurma”, “take it easy- tashvishlanaverma”.

Antonomik tarjimaga ehtiyoj paydo bo`lishining uchta asosiy sababi bor: 1) asliyat va tarjima tillari xususiyatlari; 2) kontekst talablari hamda 3) tarjima tilidagi an`anaviy normaning mavjudligi. Antonim so`zlar guruhi asliyat va tarjima tillarida bir-biriga to`g`ri kelishi shart bo`lmagan hollarda: “armament-disarmament” so`zlari o`zbek tiliga qurollanish” hamda “qurolsizlanish” deb tarjima qilinadi

Ba`zan antonimlar tarjimasi kontekstdagi ma`noni beradigan eng maqbul usul bo`lib hisoblanishi mumkin: “She failed to notice it- u buni sezmedi”. Ikkita inkor signaldan tashkil topgan ifoda tuzilmasiga alohida e`tibor qaratish lozim: “it was not until...that...” o`zbek tiliga “faqat” so`zi yordamida tarjima qilinishi mumkin.² Masalan, “It wasn’t until 1959 that chemists succeeded in obtaining

¹G`ofurov I., Mo`minov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Bo`stoni, 2012.-B.112.

²Zoya Proshina.-Vladivostok: Far Eastern University Press. 2008.B.149.

this component¹- faqat 1959 yildagina kimyogarlar bu komponentni qo`lga kiritishga muvaffaq bo`ldilar”.

3. Keyingi transformatsiya kompensatsiya yoki gapning tushurib qoldirilgan qismini to`ldirish deb ataladi. Bu odatda asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo`q bo`lgan hollarda qo`laniladi. Matnning stilistik jihatdan to`laqonli bo`lishida bir stilistik usul o`rniga iloji boricha uning o`rnini to`liq bosadigan boshqa bir stilistik vositadan yoki stilistik usuldan foydalaniladi. Matnda muallif tomonidan maxsus qo`llangan fonetik, grammatik, stilistik vosita va usullar aksariyat hollarda tushurib qoldiriladi va uning o`rnini qoplash va mazmun- munosabatni saqlash, stilistik yo`qotishni to`ldirish uchun kompensatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. “He was ashamed of his parents..., because they said don`t” and “she don`t- uo`z ota-onasidan uyaldi, chunki ular so`zlarni noto`g`ri talaffuz qildilar”

II. Leksik transformatsiyaning qo`shish turidan ba`zi ma`noviy tarkibiy qismlarni tarjima tilida strukturaviy ifoda etishning iloji bo`lmaganida foydalaniladi va bu asosan asliyatdagi so`z birikmalarini tarjima qilish jarayonida qo`llaniladi: Pay claim –ish haqini oshirish talabi; Logical computer-Logik operatsiyalarni bajaruvchi hisoblash mashinasi.

III. Leksik transformatsiyaning tushurib qoldirish turida ortiqcha ma`noga ega so`zlar tushurib qoldirildi. Masalan, ingliz tilidagi juft sinonimlar, egalik olmoshlari tushurib qoldirilishi mumkin. “we went together through mud and slash –biz birgalikda loy kechdik”

Bundan tashqari semantic jihatdan neytral hisoblangan “thing”, “matter”, “stuff”, “challenge” va shu kabi keng ma`noli so`zlarni tarjima qilishda transformatsiyadan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, “I don`t know this thing” gapini ikki xil tarjima qilish mumkin- “Men bu narsani bilmayman” yoki “Men buni bilmayman”²

¹Pumpyansky A. L. Упражнения по переводу английской научной и технической литературы. – Минск: Попурри, 1997. – В.62.

²G`ofurov I., Mo`minov O. Qambarov N. Tarjimanazariyasi. -Toshkent: Tafakkur Bo`stoni, 2012. -B.112.

Tarjimada grammatik muvofiqlik. Grammatik muvofiqlikning uch turi mavjud: to`liq, qisman, nomuvofiqlik. Biz grammatik muvofiqlikni ikki qismga bo`lamiz: morfologik va sintaktik.

To`liq morfologik muvofiqlik bir xil grammatik kategoriyalar bor bo`lganida kuzatiladi. Misol uchun: zamon kategoriyasi, son kategoriyasi, nisbat kategoriyasi va h.z

Boys – bolalar-дети

Qisman morfologik muvofiqlik tillardagi grammatik kategoriyalar bir-biriga mos kelmaganida kuzatiladi. Misol uchun: ingliz tilida 2 ta kelishik bor, o`zbek tilida esa 6 ta. Grammatik kategoriyalardagi farqlar odatda tildagi boshqa vositalar bilan ifodalanadi.

Morfologik nomuvofiqlik tilda grammatik kategoriyalarni mos kelmaslik holatida kuzatiladi. Misol uchun: o`zbek tilida egalikning grammatik kategoriyasi mavjud. U affikslar orqali ifodalanadi, lekin bunday grammatik kategoriyalar ingliz tilida ham, rus tilida ham mavjud emas.Ular bunda olmoshlardan foydalanishadi.

Ingliz tilida aniqlik va noaniqlik “a/an”, “the” artikllari orqali ifodalanadi. Lekin o`zbek va rus tillarida aniqlik va noaniqlikni ifodalash uchun leksik va sintaktik vositalardan foydalanamiz.

Misol uchun:

Qandaydir ahamiyati bor deysizmi? Buning juda katta ahamiyati bor.

A difference? It will make the difference.

To`liq sintaktik muvofiqlik tuzilishdagi muvofiqlik tuzilishdagi muvofiqlik bo`lib gapdagi so`zlar tartibi. Misol uchun:

Adj. + noun =red pen – qizil ruchka – красная ручка.

Subject+noun=he laughed – u kuldi – он смеялся.

Qisman sintaktik muvofiqlik ma`noning muvofiqligi, ammo tuzilishida farq qiladigan deb tushuniladi.¹ Misol uchun:

Glass + tube – N+N, shisha naycha N+N, стеклянная труба – Adj + N /

¹G`ofurov I., Mo`minov O. Qambarov N.Tarjima nazariyasi.-Toshkent:Tafakkur Bo`stoni,2012.-B.137

Sintaktik muvofiqlikning yo`qligi deganda tarjima uchun manba tilda ishlatiladigan, lekin tarjima qilinyotgan tilda ma'lum sintaktik tuzilishlarning bo`lmasligi tushuniladi. Masalan:

I heard the door open — Men eshikning ochilishini eshitdim. —
To`ldiruvchi ergash gap.

Bu yerda o`rin almashtirish, o`zgartirish kiritish, tushirib qoldirish va qo`shimcha qo`shishdan foydalanilgan.

Grammatik mos bo`lmaslik deganda bitta yoki boshqa grammatik shakl yoki konstruksiyalar o`girilayotgan tilda mavjud bo`lmasligi, shakl va konstruksiyalar ishlatilishida moslik bo`lmasligi, so`zlarning birikishida farq bo`lishi, bir xil ma'noga ega bo`lgan so`z turkumlarining bo`lmasligi tushuniladi. Transpozitsiya — ayni tildagi lingvistik elementlar tartibi yoki o`rnini o`zgartirishdir.

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo`shimchalar va so`z yasalishi, sintaktik modellar, so`z tartibi, yordamchi so`zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma'noni, leksik ma'nolarning aniq shaklini ko`rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma'nolarni ifodalash muhim muammodir. Turli xil tillarning grammatik shakllari juda kam hollarda ularning ma'no va vazifasiga mos keladi. Qoida sifatida faqatgina qisman ekvivalentlikka ega, bu esa grammatik ma'nolar grammatik shakllar orqali ifodalanishidir, shunga qaramasdan, ikki til o`zaro o`xshashdek ko`rinadi, faqatgina ularning ma'nolaridagi ba'zi qismlari mos keladi va o`xshash ma'nolar o`zaro farq qiladi. Misol uchun: otlardagi son kategoriyasi ingliz tili, rus tili, o`zbek tilida ham bir-biriga mos keladigandek ko`rinadi, aslida esa juda ko`p kelishik qo`shimchalarining qo`llanishida bir-biriga mos kelmaydi.¹

Birinchi muammo aniq tarjima qilishning imkoni yo`qligidir. Tillardagi so`zlarning va grammatik tuzilishlari odatda o`xshash bo`lmaydi. Buni “logos ”

¹Musayev Qudrat. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O`zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005.- 320b

soʻzini misol keltirish orqali izohlaymiz. Ingliz tilidagi hech qaysi soʻz unga ekvivalent boʻla olmaydi. U soʻz, fikr mulohaza aytish, muhokama qilish va boshqa maʼnolarni anglatadi. Antonomik tarzda qilingan tarjima grammatika nuqtai- nazaridan olib qaraganda u nafaqat leksik, balki grammatik transformatsiya natijasi hamdir. Misol uchun:

Take it easy – не беспоко́йся – xavotir olma

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik koʻrinishlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Baʼzi hollarda ular bir-biriga juda yaqin bogʻliq va leksik-grammatik xarakterga ega boʻladi.

Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki ingliz tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda soʻz tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir.

Tarjimada biror bir soʻz turkumi boshqa bir soʻz turkumi bilan oʻzgartirilishi mumkin. Bu toʻliq yoki qisman transformatsiyalarga bogʻliqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, feʼl va ravish bilan almashinishi mumkin. Amerika hayotidan: White schools – schools for white – oq tanlilar uchun maktablar; white churches – churches for white.¹

Tarjima qilishda koʻp hollarda sifatlar ravishlar bilan almashtiriladi. Bu grammatik transformatsiyaning badiiy asar va publitsistika (ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid adabiyot)da epitet (sifatlash) hodisaning mavjudligiga bogʻliqdir. Misol uchun: Lord Nesby stretched a careless hand. – Лорд Несби небрежно протянул руку.– Lord Nesbi istar-istamay qoʻlini choʻzdi.

Baʼzan ingliz tilidagi ravish soʻz turkumi boshqa bir soʻz turkumi bilan oʻzagrishi sodir boʻladi. Misol uchun:

The accusation has been disproved editorially. – Aybdorlik gazeta maqolasida oqlandi.²

¹ Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Boʻstoni, 2012.-B.137.

² Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.-Toshkent: Tafakkur Boʻstoni, 2012.-B.138.

Ingliz tilida gapda soʻz tartibida dastlab bosh boʻlaklar: ega va kesim, soʻngra esa 2-darajali boʻlaklari keladi. Rus tilining akademik (oliy) gramantikasida gapda soʻz tartibi quyidagicha koʻrsatilgan: hol, kesim, ega; ingliz tilida buning aksi qabul qilingan. Misol uchun: Yesterday's deal was considered in court. Xabarning boshi gapning oxirida boʻlishi lozim. Rus tilidagi gapda soʻz tartibi turlicha boʻlishi mumkin.

Deal was considered in court yesterday. Berilgan gapning markazidagi "deal" (gapning egasi) gapning boshida boʻlishi lozim.

Bu gapni ingliz tiliga tarjima qilishda ingliz tilining qoidalariga koʻra turli xil oʻrin almashtirishdan foydalaniladi va gapni 2 ta soda gapga ajratsa ham boʻladi. Gapdagi soʻzlar bir-biri bilan sintaktik bogʻlanish orqali bogʻlangan. Ular 4 ta: predikativ (ega va kesim oʻrtasida); toʻldiruvchi (kesim va toʻldiruvchi oʻrtasida); aniqlovchi vazifasida keladigan (aniqlanmish va aniqlovchi oʻrtasida); va hol vazifasini bajaradigan (hol va ergashgan soʻz oʻrtasida) soʻzlar guruhi turli xil sintaktik bogʻlanishlar orqali birikadi va u soʻz birikmasi deb ataladi. Soʻz birikmasi qatʼiy jumlar yoki ixtiyoriy soʻzlardan tuzilishi mumkin. Dastlab maʼlum birikmani tarjima qilib olib soʻngra nutqning shaklini qoʻshimcha (kelishik)larga moslab yangi bir birikmani hosil qilish lozim. Soʻzlarning birikish qoidasi turli xil tillarda turlichadir. Bunga har bir til dunyodagi narsa va hodisalarning oʻzaro aloqasini turli xil usullarda tasvirlaydi deb izoh beriladi. Shuning uchun turgʻun (erkin) birikmalarni tarjima qilish mushkul boʻlishi mumkin.¹

Xulosa qilib aytganda, bir tilda yaratilgan asarni ikkinchi bir tilde tarjima qilish jarayonida turli mutanosibliklar va nomunatosibliklarga duch kelinadi, hamda ular tarjimaning bilim va mahorati orqali bartaraf etiladi.

¹Gʻofurov I., Moʻminov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur Boʻstoni, 2012. - B. 138

II BOB. INGLIZ BOLALAR ADABIYOTI VAKILLARI ASARLARINING O`ZBEK TILIGA QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

2.1. Ingliz adabiyoti vakillari asarlarining o`zbekcha tarjimasida leksik transformatsiyalar

Asarning asl mazmuniy-g`oyaviy xususiyatini kitobxonga yetkazib berish mas`uliyati tarjimonni so`zma-so`z tarjima qilishdan qochib, ikki tilning lisoniy vositalaridan unumli foydalangan holda asarni qayta yaratishga undaydi. Shu vazifani mohirona amalga oshira olgan o`zbek istedodli tarjimoni Miraziz A`zam o`zining “Jahon bolalar adabiyoti” nomli hikoya va she`rlar to`plamini nashr ettirgan. Ushbu to`plamdan o`rin olgan Redyard Kiplingning “How the rhinoceros got his skin” (“Karkidonga Bunday teri qayoqdan kelgan”) hikoyasini lisoniy-uslubiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, leksik va grammatik transformatsiyalardan unumli foydalanganligining guvohi bo`lamiz:

Asliyatda:

In those days the Rhinoceros's skin fitted him quite tight. There were no wrinkles in it anywhere. He looked exactly like a Noah's Ark Rhinoceros, but of course much bigger.¹

Tarjimada:

U paytlarda Karkidonning terisi yupqa, sip-silliq, bironta ham osilgan solingan, qarimsiq joyi yoq edi, ko`rinishi xuddi yog`och o`yinchoqqa o`xshab ketardi, turgan gapki yirik o`yinchoqqa o`xshardi, demoqchiman.²

“fitted quite tight” iborasi so`ma-so`z tarjima qilinmay yani “karkidonning terisi tarang joylashgan” deb tarjima qilish o`rniga “karkidonning terisi yupqa, silliq...” varianti ancha afzalroq topilgan. Bundan tashqari “Noah's Ark” so`z birikmasi o`zbek kitobxoniga tushunarli bo`lmasligi mumkin. Noah's Ark so`z birikmasi xristianlarning muqaddas kitobi Injilda keltirib o`tilgan Noy

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.54.

tomonidan qurilgan “kema” ma’nosini anglatadi. Ushbu soʻz oʻzbek kitobxonlari uchun hech qanday informativ xususiyatga ega boʻlmaganligi sababli tushurib qoldirilgan va oʻrni “yogʻoch oʻyinchoq” soʻzi bilan toʻldirilgan. Bu misollar leksik transformatsiyaning oʻrin almashtirish (umumiylashtirish) turiga kiradi.

Asliyatda:

He baked it and he baked it till it was all done brown and smelt most sentimental.¹

Tarjimada:

Shunday qilib, u oʻzi hozirlagan pishiriqni tandir- oʻchoqqa yopdi, u qip-qizil boʻlib pishdi va butun atrofga ishtaha qoʻzgʻatadigan mazali hid tarqaldi.²

Asliyatda berilmagan soʻzlarni tarjimada qoʻshish matni tushunishga koʻmaklashadi, shu sababli tandir-oʻchoq soʻzi tarjima jarayonida qoʻshilgan. Mutarjim “most sentimental” soʻzini tarjima qilishda leksik transformatsiyaning konkretlashtirish usulidan foydalangan. Bu soʻzni oʻzbek tilida “tez taʼsir qiladigan” “yurakni ezadigan” “hassos” “boʻsh” tarjimalari mavjud. Lekin bu yerda kontekstdan kelib chiqqan holda “ishtaha qoʻzgʻaydigan” deb tarjima qilingan. Shuningdek, leksik transformatsiyaning uchinchi turi, yani ikki hodisa ortasidagi mantiqiy aloqaga asoslanib tarjima qilingan. Asliyat matni va tarjima matnidagi fikrlar bir-birlari bilan semantik jihatdan sabab va natija sifatida bogʻlangan. Asliyatda avval sabab keyin natija keltirilgan boʻlsa, tarjimada buning aksi avval natija keyin sabab keltirilgan.

Hikoya ichida keltirilgan sheʼriy parchada asliyatdagi soʻzlarning aynan tarjimasini emas, balki hikoyaning umumiy kontekstdan kelib chiqqan maʼnosi yoritilgan.

Asliyatda:

‘Them that takes cakes
Which the Parsee-man bakes
Makes dreadful mistakes.’¹

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz Aʼzam. Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.54.

Tarjimada:

Kim yemakni shox ila titgay,
O'z terisin badburush etgay”²

O'zbek tilida “va” bog'lovchisi ingliz tiliga nisbatan kam ishlatilishi bois tarjimada “and” bog'lovchisi o'z ma'nosida kelmaydi. Quyidagi gapda ham bu yaqqol bilinadi.

Asliyatda:

“...the cake crumbs tickled him worse and worse and worse.”³

“And” bog'lovchisi mazmuni kuchaytirish maqsadida ishlatilgan va o'zbek tiliga “yana” so'zi orqali ifodalangan:

“... holi yana yomonroq bo'laverdi, yomonroq bo'laverdi, yomonroq bo'laverdi.”⁴

Asliyatda:

Then he wanted to scratch, but that made it worse.⁵

Tarjimada:

U qashinmoqchi bo'lar, ammo bundan ahvoli battar yomonlashardi⁶ “made” fe'li to make fe'lining o'tgan zamon shakli bo'lib, “tayyorlangan”, “yasalgan” “majbur qilingan” ma'nolari mavjud. Ammo bu gapda hikoyaning mazmunini saqlash maqsadida “make” so'zining munosib ekvivalenti tanlangan.

Shuningdek, shu kabi leksik transformatsiyalarni R.Kiplingning “Tuyaga o'rkach qayoqdan kelgan?” (How the Camel Got His Hump) asarida ham uchratish mumkin. Masalan, asliyatda:

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A'zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz A'zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.56.

⁵ www.kiplingsociety.co.uk

⁶ Miraziz A'zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B. 56.

...and when anybody spoke to him he said ‘Humph!’ Just ‘Humph!’ and no more.¹

Tarjimada:

Unga bir nima desalar, og`zidan ko`piklar sachrab, kavsh qaytarib:

-G`arch-g`arch,qoch-qoch!- deb javob qaytarardi. Faqat “G`arch-g`arch, qoch-qoch!”-boshqa hech gap yo`q!²

Tarjima matnida ba`zi so`zlar qo`shilgan. “ko`piklar sachrab, kavsh qaytarib”so`zlari asliyatda keltirilmagan bo`lsada, tarjimada transformatsiyaning qo`shish usulidan foydalanilgan. Ushbu jumlada shuningdek, transformatsiyaning kompensatsiya turini kuzatish mumkin. Ya’ni, “Humph” so`zi tushurib qoldirilgan va uning o`rni boshqa so`zlar bilan to`ldirilgan.

Quyidagi misolda ham leksik transformatsiyaning o`rin almashtirish turidan foydalanilgan:

Asliyatda:

‘Camel, O Camel, come and fetch and carry like the rest of us.’

Tarjimada:

Tuya! Hov tuya! Odamning oldiga bor, u bilan birga yurib bizday ov qil!- dedi.

“Fetch and carry” so`z birikmasi “Longman Dictionary of Contemporary English” lug`atida keltirilishicha, “to do simple and boring jobs for someone as if you were their servant” , ya’ni “birovning xizmatkoriday oddiy va zerikarli ishni qilish” ma’nosini anglatadi.³ Ammo mutarjim leksik transformatsiyaning konkretlashtirish turidan foydalanib, bu so`zlar itga tegishli bo`lganligi sababli uning inson uchun qiladigan ishlaridan biri ya’ni ov mashg`uloti “fetch and carry” iborasi o`rnida ishlatilgan.

Asliyatda:

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.49.

³ Longman dictionary of contemporary English

That made the Three very angry (with the world so new-and-all)¹

Tarjimada:

Bu gapni eshitib, Ot, Ko`ppak, Buqaning jahli chiqib ketdi (axir, dunyo yap-yangi edi)²

“To make” fe’lining asosiy ma’nosi o`zbek tilidagi “tayyorlamoq” fe’liga to`g`ri keladi. Biroq bu keng ma’noli fe’l bo`lib, o`zidan keyin kelgan so`zga qarab, ushbu jumlada kuzatilganidek ma’nolari turlicha tovlanadi, ushbu matnda ham “make” so`zi “angry” so`zi bilan birikib transformatsiyaga uchragan va “jahlini chiqarmoq” ma`nosida kelgan. Tarjimon leksik transformatsiyaning konkretlashtirish usulidan unumli foydalangan.

Asliyatda:

...they held a palaver, and an *indaba*, and a *punchayet*, and a pow-wow on the edge of the Desert³

Tarjimada:

Ular sahroning bir chekkasiga borib, baland ovoz bilan “nima qilamiz” deb muhokama boshlashdi, vovullab, kishnab, mo`rab olamni buzishdi.⁴

Tarjimada leksik transformatsiyaning qo`shish –“muhokama boshlashdi”, “vovullab, kishnab mo`rab” fe’llari asliyatda keltirilmagan bo`lsada tarjimada berilishiga guvoh bo`lamiz. Shuningdek, aynan shu matnda bir gapda ishlatilgan bir so`zning turli sinonimlari, ya’ni “palaver”, “indaba”, “pow-wow” so`zlarining o`zbekcha ekvivalenti “muhokama”ir. Tarjima tilida esa tushurib qoldirish leksik transformatsiyasidan foydalanib, sinonim so`zlar bir so`z orqali ifodalangan.

Asliyatda:

‘That’s made a-purpose,’ said the Djinn⁵

Tarjimada:

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.50.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.50.

⁵ www.kiplingsociety.co.uk

-Bu senga jazo!- deb javob berdi Jin.¹

“Purpose” soʻzining maʼnosi “maqsad, niyat” boʻlib, ammo matnning yanada tushunarli boʻlishi uchun tarjimon kontekstdan kelib chiqqan holda ushbu soʻzni “jazo” soʻzi orqali ifodalagan va bu hikoyaning umumiy maʼnosini kitobxonga yetkazish uchun xizmat qilgan.

Asliyatda:

The Djinn sat down, with his chin in his hand, and began to think a Great Magic²

Tarjimada:

Jin qumga oʻtirib qoʻlini iyagiga tiragancha, uni avrashga kirishdi³

“Began to think a Great Magic” gap qismini “Buyuk Sehrni oʻylashni boshladi” tarzida soʻzma-soʻz tarjima qilinganda kitobxonda “Buyuk Sehr” jumlasini qanday sehrligini oʻylashga, tushunmovchilikka olib kelishi mumkin edi. Shu sababli tarjimon bu soʻz birikmalarini tushurib qoldirgan va leksik transformatsiyaning kompensatsiya usulidan foydalanib, hikoyaning maʼnosini saqlagan holda boshqa soʻzlar bilan yaʼni uni avrashga kirishdi deb berishni afzal koʻrgan.

Mazkur muallifning “Kitbaliqqa xartum qayerdan kelgan?” (“How the Whale got his throat?”) hikoyasini lisoniy-uslubiy jihatdan tahlil qilarkanmiz, leksik transformatsiyaning bir necha turiga duch kelamiz. Masalan, quyidagi gapda tushurib qoldirish va kompensatsiya kabi leksik transformatsiya turidan foydalanilgan:

Asliyatda:

In the sea, once upon a time, O my Best Beloved, there was a Whale⁴

Tarjimada:

Bu voqea yuz berganiga koʻp boʻlgan, oʻgʻiljonim. Bir Kitbaliq bor edi¹

¹ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.52.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.51.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

Asliyatdagi “in the sea” soʻz brikmasi tarjimada tushurib qoldirilgan. Hikoya muallifi “O my Best Beloved” deb kitobxonga murojaat qilgan. Ushbu soʻz birikmasi soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “o, mening eng sevikligim” tarzida boʻlardi. Ammo mutarjim mazkur jumlani tarjima qilishda hikoya moʻljallangan yosh vakillari, yaʼni bolalarni hisobga olgan holda kompensatsiya usulidan mohirona foydalangan va “oʻgʻiljonim” soʻzi bilan almashtirgan, yaʼni tushurib qoldirilgan soʻz oʻrnini boshqa soʻz bilan toʻldirgan.

Asliyatda:

He ate the starfish and the garfish, and the crab and the dab, and the plaice and the dace, and the skate and his mate, and the mackereel and the pickereel, and the really truly twirly-whirly eel²

Tarjimada:

Choʻrtonlarni ham, tangabaliqchalarni ham, oqbaligʻlar bilan sevrugasini ham, selkudka baligʻi bilan uning xolasini ham, chuchuk suvda yashaydigan churvaqa baliqni va uning singilchasini ham, chaqqon va suzagʻon, chap berishni qotiradigan ilonbaliqlarni ham qirib yer edi, qaysi baliq duch kelsa happa-happa yutaverardi.³

Ingliz tilida “va” (and) bogʻlovchisi oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq koʻp ishlatiladi. “Va” bogʻlovchisi “ham” koʻmakchisi bilan almashtirilgan. Bundan tashqari, matnning stilistik jihatdan toʻlaqonli boʻlishida bir stilistik usul oʻrniga iloji boricha uning oʻrnini toʻliq bosadigan boshqa bir stilistik vositadan foydalanilgan, yaʼni asliyatdagi soʻzlar oʻrnida boshqa soʻzlar keltirilgan.

Asliyatda:

Till at last there was only one small fish left in all the sea, and he was a small Stute Fish⁴

Tarjimada:

¹ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.57.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.57.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

Shunday qilib desang, o`g`iljonim, butun boshli dengizda faqat bittagina baliq – Balcha- Xolcha omon qoldi.¹

Asliyatdagi “at last” so`zi tarjima matnida tushurib qoldirilgan. Shunday qilib desang, o`g`iljonim” gab qismi esa garchi asliyatda keltirilmagan bo`lsada, tarjimada qo`shilgan. Bundan tashqari “Stute Fish” so`zining to`liq ekvivalenti o`zbek tilida mavjud bo`lmaganligi bois “Balcha-Xolcha” so`zi bilan almashtirilgan. Aynan shu gapni tahlil qilishda davom etarkanmiz, yana bir so`zning tarjimasiga e`tiborimizni qaratishimiz lozim. “was...left” so`zi “to be left” fe`lining o`tgan zamon shakli bo`lib “qoldirmoq, tark etmoq” ma`nolari mavjud. Tarjimada o`rin almashtirish usulidan foydalanilgan bo`lib, “omon qoldi” deb o`girilgan va ma`no saqlab qolingan.

Keyingi misolda antonomik tarjimadan foydalanilgan. Shuningdek, Noble and generous Cetacean”- Oliyjanob va Saxovatli Kit” so`zlari tushurib qoldirilgan.

Asliyatda:

And the small 'Stute Fish said in a small 'Stute voice, 'Noble and generous Cetacean, have you ever tasted Man?’²

Tarjimada:

Balcha-Xolcha mug`ombirona ingichka ovoz bilan:

-Sen hali odamni tatib ko`rmading-a? -deb so`radi³

Quyidagi matn tarjimasida ham leksik transformatsiyaning kompensatsiya turiga guvoh bo`lamiz.

Asliyatda:

Then the Whale opened his mouth back and back and back till it nearly touched his tail⁴

Tarjimada:

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.57.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.57.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

Kitbaliqning og`zi borgan sari kattayib-kattayib-kattayib, naq dumining oldigacha ochilib ketdi¹

“back” so`zining o`zbekcha ekvivalenti “orqa” so`ziga, “touch” so`zining ekvivalenti esa “tegmoq” so`ziga to`g`ri keladi. Ammo mutarjim ikkala so`zlarni ham tushirib, boshqa so`zlar orqali bergan. “Back and back and back” –“kattayib-kattayib-kattayib”, “touch”- “ochilib ketdi”. Leksik transformatsiyaning kompensatsiya usuli hisoblanadi. Tarjimon so`zlarni takror ishlatib, bo`yoqdorlikni oshirgan hamda bolalarga xos uslubni yarata olgan.

Asliyatda:

He swallowed them all down into his warm, dark, inside cup-boards²

Tarjimada:

Hammasi qop-qorong`i omborga borib tushdi.³

“Cup-board” so`zining o`zbekcha ma`nosi “shkaf, buffet” bo`lib, tarjimon bu so`z o`rniga “omborxonona” so`zini ishlatgan. Bu usul leksik transformatsiyaning kompensatsiya usuli bo`lib, bir so`z o`rnida boshqa so`z ishlatilgan. Ombor deb oshqozon nazarda tutilgan, tarjimon o`xshatishdan foydalangan. Ombor turli buyumlar bilan to`la bo`lgani sabab hamma narsa ayqash-uyqash chalkashib yotadi. Uning oshqozonini shunga o`xshatilgan, ya`ni hamma narsani qo`shib yeganidan omborga o`xshatilgan, bu esa metafora stilistik vositasi hisoblanadi. Tarjimon asliyatdagi qo`llanilgan stilistik vositani tarjimada ham saqlab qolgan.

Asliyatda:

Have you forgotten the suspenders?⁴

Tarjimada:

Umid qilamanki, tasmalarni unitmagansan!⁵

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.58.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.58.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

⁵ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.59.

Antonimik tarjimadan foydalanib, soʻroq gap his-hayajon gap orqali ifodalangan hamda “umid qilamanki” jumlasini qoʻshilgan.

Asliyatda:

‘Nay, nay!’ said the Mariner¹

Tarjimada:

Gap bundoq,- dedi Dengizchi²

“Yoʻq” maʼnosini anglatuvchi “Nay” soʻzining tushurib qoldirilishi va oʻrnida “gap bundoq” soʻzining ishlatilishi kompensatsiyaning yana bir yorqin namunasidir.

Asliyatda:

Take me to my natal-shore and the white-cliffs-of-Albion³

Tarjimada:

... meni ona yurtimning qirgʻoqlariga, Angliyaning oppoq qoyalariga olib bor⁴

Albion Angliya hududida tashkil topgan qadimiy davlat nomi boʻlib, tarixiy voqealardan xabardor boʻlmagan oʻzbek kitobxoniga, ayniqsa, yosh bolajonlarga ushbu soʻz notanish boʻlishi mumkin. Shu sababli tarjimon leksik transformatsiyaning umumiyashtirish turidan foydalanib, “Albion” soʻzini tushurib qoldirib oʻrnida “Angliya” soʻzini ishlatgan. Fikrimizcha, “Albion” soʻzining oʻzi uning qisqacha izohi bilan tarjimada berilishi ancha afzalroq boʻlardi. Chunki bu kitobxonning bilimini ham oshirishga xizmat qilgan boʻlardi va shunday davlat mavjudligidan xabardor qilar edi.

Asliyatda:

The small 'Stute Fish went and hid himself in the mud under the Door-sills of the Equator.⁵

Tarjimada:

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.59.

³www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi,2016.-B.59.

⁵ www.kiplingsociety.co.uk

Ayyor Balcha-Xolcha esa, olis-olislarga Ekvatorning ostonasiga suzib ketdi va dengiz ostidagi yo`sinlar tagiga yashirindi.¹

Matnlar ingliz tilidan o`zbek tiliga o`girilganda aksariyat hollarda, olmoshlar tushurilib qoldirilishiga duch kelinadi. Buni “himself” o`zlik olmoshi tushurib qoldirilishi misolida ham kuzatish mumkin.

Asliyatda:

Then he recited the following Sloka²

Tarjimada:

U sehrli so`zlarni aytgan edi³

Ingliz tilidagi “Sloka” so`zi o`zbek tilida “qarg`ish, yomon so`z” degan ma`nolarni anglatadi. Ushbu so`zning o`zbekcha to`liq ekvivalenti bo`lmaganligi sababli tushurib qoldirilgan va uning o`rnida “sehrli so`zlar” jumlasini keltirilgan. Yosh kitobxonlar uchun “qarg`ish” so`zidan ko`ra “sehrli so`zlar” ancha tushunarli, chunki bolalar “sehrli so`z” so`z birikmasini multfilmlarda va ertaklarda ko`p eshitishgan. Sehrli so`z ma`no jihatdan “qarg`ish” so`zidan kengroq bo`lib, u ham yomon niyatni, ham yaxshi niyatni ifodalashda ishlatilishi mumkin. Bu esa leksik transformatsiyaning umumiy lashtirish turi- tor ma`noli so`z kengroq ma`noli so`z bilan almashtirilishi- hisoblanadi.

Asliyatda:

And from that day to this the Camel always wears a humph (we call it ‘hump’ now, not to hurt his feelings)...⁴

Tarjimada:

...u hozirgacha yelkasida o`rkachi bilan yuradi (Biz “g`arch-g`arch” demaymiz, Tuyani xafa qilmaslik uchun o`rkach deymiz.)⁵

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi,2016.-B.59.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.59.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

⁵ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.52.

Ingliz tilida “humph” ya’ni “hm” norozilik yoki ikkilanish ma’nosini anglatuvchi soʻz va “hump”-“oʻrkach” soʻzi ham yozilish ham talaffuzda oʻxshash boʻlib, yozuvchi “hump” soʻzining kelib chiqishini “humph” soʻziga taqagan. Bir tomondan bu matning stilistik ahamiyatini oshirgan. Matnda muallif tomonidan maxsus qoʻllanilgan fonetik, grammatik vosita tushurib qoldirilgan va tarjimon tomonidan uning oʻrnini qoplash hamda mazmun-mohiyatni saqlash, stilistik yoʻqotishni toʻldirish uchun kompensatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq deb topilgan. “humph” soʻzi oʻrnida “gʻarch-gʻarch” soʻzi qoʻllanilgan.

Redyard Kipling qalamiga mansub “Yer tepingan Parvona” ertagidagi leksik transformatsiyalarni tahlil qilar ekanmiz, uning barcha turlarini, ya’ni qoʻshish, tushurib qoldirish, antonomik tarjima, kompensatsiya kabi usullaridan tarjima jarayonida qoʻllanilganligiga guvoh boʻlamiz.

Asliyatda:

O my Best Beloved, is a story - a new and a wonderful story--a story quite different from the other stories - a story about The Most Wise Sovereign Suleiman-bin-Daoud--Solomon the Son of David.¹

Tarjimada:

Mana senga, oʻgʻiljonim, yangi bir ajoyib ertak, boshqa ertaklarga hech oʻxshamaydigan antiqasi: oʻzi donishmand podsho Sulaymon ibn Dovud haqida.²

Ushbu matn qismi tarjimasida leksik transformatsiyaning kompensatsiya, antonomik tarjima, qoʻshish va tushirib qoldirish turidan foydalanilgan. “o, my Best Beloved” soʻzlari tushirib qoldirilib, oʻrnida esa asar moʻljallangan kitobxon ya’ni bolalarni hisobga olgan holda “oʻgʻiljonim” soʻzi bilan toʻldirilgan. Gapning “quite different from other stories” qismi esa antonomik tarjima usulida oʻgirilgan boʻlib, oʻzbek tiliga boʻlishsiz gap shaklida tarjima

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.37.

qilingan. Mutarjim asliyat tilida keltirilmagan soʻzni, yaʼni “antiqasi” soʻzini asarning oʻzbekcha tarjimasida qoʻshgan.

Asliyatda:

He understood everything, from the bishop on the bench to the hyssop on the wall.¹

Tarjimada:

U, arini ham, boʻrini ham, chechakni ham, pechakni ham – hammasini tushunardi.²

Ertak muallifi alliteratsiya stilistik vositasidan hamda “bishop” va “hyssop” soʻzlari qofiyadoshligidan foydalangan. “bishop”– “ruhoniy” “hyssop” –“devorga chirmashib oʻsuvchi oʻsimlik” maʼnolarini anlatadi. Tarjimon bu soʻzlarning aynan tarjimasini keltirganda matnning stilistik shaklini yoʻqatgan boʻlardi. Shu sababli leksik transformatsiyaning kompensatsiya turidan foydalanib, “bishop” va “hyssop” soʻzlari tushurib qoldirilgan va oʻrni boshqa ari – boʻri , chechak – pechak soʻzlari bilan toʻldirilgan.

Asliyatda:

Once he tried to feed all the animals in all the world in one day, but when the food was ready an Animal came out of the deep sea and ate it up in three mouthfuls.³

Tarjimada:

Bir kuni dunyoda mavjud boʻlgan hamma hayvonlarni bir kunning oʻzida mehmon qilmoqchi boʻlganini jar qildi, ammo yemakni hozirlaganda dengizning tagidan allaqanday bir katta Alphasuzib chiqdi va hamma ovqatni uch yutishda tamom qildi.⁴

Mazkur misolda leksik transformatsiyaning oʻrin almashtirish turidan foydalanilgan. “Feed” soʻzining tarjimasida “ovqatlantirmoq” boʻlib, tarjimada

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.37.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.37.

“mehmon qilmoqchi”so`zi bilan almashtirilgan. Shuningdek, “animal” so`zini tarjima qilishda mutarjim umumiy kontekstdan kelib chiqqan holda kitobxonda yetarlicha tasavvur uyg`otish maqsadida “Alphayvon” shaklida bergan va katta so`zini qo`shgan. “3 yutish orqali tamom qildi” deya bahaybat hayvonligini yana bir bor ta`kidlagan. Chunki alp qahramon, bahodir degan ma`noni anglatadi.

Asliyatda:

Some of the wives were nice, but some were simply horrid...¹

Tarjimada:

Ularning birlari chiroyli, birlari xunuk edi.²

Leksik transformatsiyadan foydalanilgan bo`lib, “nice” va “horrid” garchi o`zbek tilida “yaxshi” va “yomon” ma`nolarini bildirsada, bu so`zlar o`rnida boshqa so`zlar “chiroyli”, “xunuk” so`zlari qo`llanilgan. Bu leksik transformatsiyaning kompensatsiya usulidir. Ingliz tilidagi matnda berilgan “some of the wives” – “ayollarning ba`zilari” deb tarjima qilinadi. Lekin tarjimon ayollar haqidagi konkret ma`noni umumiyashtirib, “ularning” so`zi orqali ifodalagan va gap umuman inson zotiga taalluqli bo`lib qolgan.

Yuqorida biz nasriy asarlarda qo`llanilgan leksik transformatsiyalarni aniqlab izohlashga harakat qildik. Quyida nazmiy asarda qo`llanilgan leksik transformatsiyalarni aniqlashga urinib ko`ramiz.

Hozirgi davr shoiri va tarjimoni H. Jeyn ta`kidlashicha, so`zma-so`z tarjima qilish tarjima emas, ohangdoshlik xususiyatini qayta yaratishga urinish tarjimashunoslik emas, asl ma`noni oddiygina yetkazib berish ham tarjimahunoslik emas.³ Darhaqiqat, ma`lum bir tilda yaratilgan she`riy asarni boshqa bir tilda uning bor mazmun-mohiyati-yu hissiyotini saqlagagan holda yaratish o`ta mushkul vazifa sanaladi. Mutarjim turli vositalar yordamida asliyatdagiga o`xshash natijani yaratishi mumkin, lekin aynan asliyatdagi asarni yaratish imkonsizdir: chunki tarjimashunoslik bu analogiya san`ati va

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.37.

³

muvofiglikni topish san'ati. Quyida Alan Milnning qalamiga mansub "Qirolning saryog`li noni haqida" ("The King's Breakfast") asarini tahlil qilar ekanmiz, lekin transformatsiyadan keng foydalanilganligini ko`ramiz.

Asliyatda:

The King asked
The Quenn, and The Quenn asked
The Dairy maid:
Could we have some butter for
The Royal slice of bread?¹

Tarjimada:

Hazrati oliylari –
janob qirolimiz
dediki hazrati oliyasiga:
- Sutchiga tayinla-
yangi saryog` qo`shsin
tongda beradigan nonushtasiga.²

Leksik transformatsiyaning qo`shish usulidan foydalanib, tarjimon asliyatda keltirilmagan "hazrati oliylari" so`zlari bilan tarjimani boyitgan. Shuningdek, qofiyani saqlab qolish maqsadida ayrim so`zlar tushurib qoldirilgan va o`rni boshqa so`zlar bilan to`ldirilgan, leksik transformatsiyaning kompensatsiya turi, masalan "some"- "yangi", "the royal slice of bread"- "tongda beradigan nonushtasiga". Asliyatdagi so`roq gap tarjimada buyruq gap shaklida tarjima qilingan. Ingliz tilidagi "The King asked The Quenn, and The Quenn asked The Dairy maid" – "qirol qirolichadan, qirolicha ayoldan so`radi" deb berilgan gap o`zbek tiliga "Hazrati oliylari – janob qirolimiz dediki hazrati oliyasiga: Sutchiga tayinla" deb o`girilgan.

Asliyatda:

The Alderney

¹ www.poemhunter.com/poem.

² Miraziz A'zam. Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.84.

Said sleepily:
“You’d better tell
His majesty
That many people nowadays
Like marmalade
instead”¹

Tarjimada:

Uyqisirab yalqov sigir
dediki:
- Qo`shoyoq-shoxsizlar zoti
shu kunda
meva qiyom,
marmelad iste`mol qilar! ²

Ushbu parchada qo`shish, tushurib qoldirish, kompensatsiya usulidan foydalanilgan. “You’d better tell his majesty” (“hazrati oliylariga aytganing ma’qul”) gapi tushurib qoldirilgan. Asliyatda keltirilmagan “yalqov” so`zi va “meva qiyom” so`zi marmelad so`zini izohlash uchun qo`shilgan. Bundan tashqari, “people” –“odam” so`zi tushurib qoldirilgan. “Many people” ko`p odamlar deyilmay, o`rnida izohlovchi “qo`shoyoq-shoxsiz zoti” so`zlari qo`shilgan.

Asliyatda:

The Dairymaid
Said, “Fancy!”
And went to her Majesty.
She curtsied to the Quenn, and
She turned a little red:
“Excuse me,

¹ www.poemhunter.com/poem.

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.85.

Your Majesty,
For taking of
The liberty,
But marmalade is tasty, if
It's very
Thickly
Spread.”¹

Tarjimada:

Saroyning sutchisi:

- Shundaymi?- dedi

Darhol malikaga

berdi ma'lumot:

- Yuz bor tuting ma'zur

bu taklif uchun-

Siz surtib bersangiz nonga marmelad,

Qirolga ham manzur,

ham bo'lar madad!²

Leksik almashtirishning kompensatsiya turidan unumli foydalanilgan ushbu ballada parchasida “fancy” soʻzi “Shundaymi” soʻzi bilan almashtirilgan. Fancy soʻzining “ajoyib, gʻalati”, “xayol, orzu” maʼnolari mavjud. “For taking of the liberty”, “if it’s thickly spread” misralari tushurib qoldirilgan va oʻrni boshqa soʻzlar bilan toʻldirilgan. Shuningdek, “And went to, Her Majesty. She curtsied to the Quenn, and She turned a little red” ballada boʻlagi tushurib qoldirilgan.

Asliyatda:

The cow said,

“There, there!

¹ www.poemhunter.com/poem.

² Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.85.

I didn't really

Mean it;¹

Tarjimada:

- Nima gap?-so`radi

saroy sigiri.-

Men sizga biron so`z

aytdimmi bequt?²

“there, there” so`zlari tushurib qoldirilib, o`rni boshqa so`z bilan to`ldirilgan. Mutarjim antonomik tarjimadan foydalangan bo`lib, asliyatdagi inkor gapni bo`lishli gap shaklida tarjima qilgan.

Xulosa qilib aytganda, mutarjim ingliz asarlarni o`zbek tiliga o`girish jarayonida ikki til o`rtasidagi nomuvofiqliklarni va asarlar mo`ljallangan yosh vakillari, ya`ni bolajonlarni hisobga olgan holda leksik transformatsiyaning barcha turidan unumli foydalangan. Buning natijasi o`lroq, nasriy va nazmiy asarlar tarjimasi tushunarli va qiziqarli bo`lishiga erishilgan.

2.2. Ingliz bolalar adabiyoti asarlarining o`zbek tiliga o`girmalarida grammatik transformatsiyalar

Bitiruvmalakaviy ishimizning II bob birinchi qismida ingliz adabiyoti vakillarining asarlari o`zbekcha tarjimasida qo`llanilgan leksik transformatsiyalarni topib, tahlil qilishga, misollar orqali yoritib berishga harakat qildik. Mazkur qismda esa ingliz yozuvchi va shoirlarning asarlarida qo`llanilgan grammatik transformatsiyalarni topishga va izohlab berishga urinib ko`ramiz.

Asliyatda:

¹ www.poemhunter.com/poem/

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.87.

ONCE upon a time, on an uninhabited island on the shores of the Red Sea, there lived a Parsee from whose hat the rays of the sun were reflected in more-than-oriental splendour¹

Tarjimada:

Qaysidir mamlakatda, qaysidir saltanatda, shundoqqina qizil dengizning qirg`og`ida Kimsasiz orol qad ko`tarib turar edi. Orolida bir Fors yashardi. Forsning bir ajoyib popog`i bor edi, quyosh nurida quyoshday yaltirardi.²

Asliyatda ergashgan qo`shma gap shaklida bo`lgan hikoyaning ushbu qismini mutarjim grammatik transformatsiyadan foydalanib, uchta sodda gap shaklida tarjima qilgan. Shuningdek, tarjima matni asliyatda qayd etilmagan “qaysidir mamlakatda, qaysidir saltanatda” ortiqcha gap qismlari bilan to`ldirilgan.

Asliyatda:

And one day he took flour and water and currants and plums and sugar and things, and made himself one cake which was two feet across and three feet thick.³

Tarjimada:

Bir safar Fors mayiz, un, suv, suv idish, shakar yana har xil narsalarni bir joyga yig`di va hammasini bir-biriga qorib, xamir qildiki, uzunligi 29 santimetr, qalinligi 30 santimetr kelardi.⁴

Grammatik transformatsiyanig tushirib qoldirilish turidan foydalanib tarjimon “himself” o`zlik olmoshining tarjimasini keltirmagan. “he” kishilik olmoshi u ishora qilgan so`z “Fors” so`zi bilan almashtirilgan. Mazkur jumla tarjimasida leksik transformatsiyani ham kuzatish mumkin. O`lchov birligini ifodalovchi “feet”so`zi qo`llanilgan “two feet across and three feet thick” gap qismini “uzunligi 2 fit, qalinligi 3 fit” deb o`girmasdan o`zbek tilida mavjud

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.54.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

o`lchov birligi, ya'ni santimetr bilan ifodalab, asliyat mazmunining o`zbekcha tarjimasida saqlab qolinishiga, tushunarli bo`lishiga erishilgan.

Quyidagi gapning tarjimasida asliyatdagi ot so`z turkumiga mansub “manners” so`zining “tarbiyasiz” shakliga, ya'ni sifat so`z turkumiga aylantirilganini ko`rishimiz mumkin.

Asliyatda:

All the same, he had no manners then, and he has no manners now, and he never will have any manners.¹

Tarjimada:

Har qalay, karkidonlar hozir ham tarbiyasiz, ilgari ham tarbiyasiz edi, kelajakda ham tarbiyasiz bo`lib qoladi.²

Asliyatda:

And the Rhinoceros upset the **oil-stove** with his nose,

Tarjimada:

Karkidon kelib, tumshug`ini tandir-o`choqqa tiqdi, shunda tandir o`choq ag`darildiyo...³

Asliyatdagi sodda gap qo`shma gap shaklida tarjima qilingan va asliyatdagi to`ldiruvchi vazifasida kelgan “oil-stove” so`zi tarjimada “tandir-o`choqqa” egaga aylantirilgan.

Quyidagi jumla tarjimasida asliyatdagi “it” olmoshi “Karkidonning terisi” anqlovchili birikmasi bilan almashtirilgan.

Asliyatda:

In those days it buttoned underneath with three buttons and looked like a waterproof.⁴

Tarjimada:

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

U paytlarda Karkidonning terisi tugmalik, qorni tomonidan tugmalanar, xohlagan payt yechib olsa bo`ladigan teri edi, xuddi rezina plashga o`xshardi.¹

Asliyatda:

And the Camel humphed himself, humph and all, and went away to join the Three. And from that day to this the Camel always wears a humph...²

Tarjimada:

Shunday qilib, o`rkachli Tuya, Ot, Ko`ppak, Buqalarning oldiga ketdi va u hozirgacha yelkasida o`rkachi bilan yuradi.³

Asliyatda sodda gap shaklida bo`lgan gaplar grammatik transformatsiyadan foydalanilgan holda qo`shilib, qo`shma gap shaklida tarjima qilingan. “humph” so`zi norozilik yoki ikkilanish ma’nosini ifodalab, “hm”, “hm demoq” deb o`zbek tiliga tarjima qilinadi. Hikoya muallifi “hump” “o`rkach” so`zining kelib chiqishini fonetik jihatdan talaffuzi va yozilishi o`xshash bo`lgan “humph” so`ziga bog`laydi. O`zbek tilida “hump” va “humph” so`zlarining ekvivalenti “o`rkach”, “hm” so`zlari na talaffuz, na yozilish jihatdan bir-biriga o`xshamaganligi sababli “humph” so`zi ham “o`rkach” deb tarjima qilingan. Fe’l so`z turkumiga oid “humph” so`zi tarjimada sifat so`z turkumiga aylantirilib “o`rkachli” shaklida o`zbek tiliga o`girilgan.

Asliyatda:

... blew bubbles through his nose, leaving his skin on the beach.⁴

Tarjimada:

.... burnidan ko`piklar chiqara boshladi, terisini esa sohilda qoldirgan edi.⁵

Ba’zan tarjima qilish jarayonida bir necha sodda gaplar qo`shilib, qo`shma gap shaklida tarjima qilinishi mumkin. Yuqoridagi matnda grammatik

¹ Miraziz A’zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A’zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

⁵ Miraziz A’zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.55.

transformatsiyaning mazkur turidan foydalanilganligiga guvoh bo`lamiz. Asliyatdagi oddiy sodda gap o`zbek tilida qo`shma gap shaklida tarjima qilingan. Shuningdek, ingliz tilida egalikni ifodalash uchun egalik qo`shimchalari mavjud emas va egalik olmoshlari orqali egalik ifodalanadi. O`zbek tilida egalikni ifodalashda egalik qo`shimchalari kifoya. Shu sababli asliyatdagi egalik olmoshi “his” tushurib qoldirilgan va so`zlarga egalik olmoshi qo`shilgan: “his nose”- burnidan , “his skin”- terisini

Asliyatda:

...and from that day to this every rhinoceros has great folds in his skin and a very bad temper, all on account of the cake-crumbs inside.¹

Tarjimada:

O`shandan buyon to hozirgi kungacha har Karkidonning terisida juda ham qalin-qalin ajinlari bor. O`zlari ham juda yaramas fe'l-atvorli bo`lib qolishgan, terisining ichida o`sha qotgan ushoqlari bo`lgani uchun ham shunday bo`lib qolgan.²

Asliyatda bitta uzun sodda gap shaklida bo`lgan jumla o`zbek tiliga ikki sodda gap shaklida o`girilgan. Shuningdek, asliyatdagi ot so`z turkumidagi “temper” so`zi tarjimada sifat so`z turkumiga kiruvchi “Fe'l-atvorli” so`ziga aylantirilgan, “bo`lib qolishgan” so`zi qo`shilgan.

Muallifning keyingi “Tuyaga o`rkach qayoqdan kelgan?” hikoyasini tahlil qilar ekanmiz, grammatik transformatsiyalardan keng foydalanganining guvohi bo`lamiz. Quyidagi misolda murakkab qo`shma gap o`zbek tiliga bir necha sodda gaplarga ajratilib tarjima qilingan.

Asliyatda:

In the beginning of years, when the **world** was so new and all, and the Animals were just beginning to work for Man, there was a Camel, and he lived

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi,2016.-B.56.

in the middle of a Howling Desert because he did not want to work; and besides, he was a Howler himself.¹

Tarjimada:

Qadim-qadimgi eng ko`hna zamonlarda butun **Yer** yap-yangi, endigina yaratilgan edi. Eng birinchi kunlardanoq hayvonlar odamlarga xizmat qila boshladi. Ammo Dahshatli-Zerikarli sahroda ishlashni xayoliga ham keltirmagan bir Dahshatli-Zerikarli tuya yashardi.²

Asliyatda:

...he was a Howler himself³

Tarjimada:

...bir Dahshatli-Zerikarli tuya yashardi⁴

Ushbu jumlada so`z turkumi almashgan bo`lib, “a Howler” ot so`z turkumidir, ya’ni “howl” so`ziga “er” ot yasovchi qo`shimcha qo`shish orqali yasalgan. Ammo tarjimada grammatik transformatsiyadan foydalanib, ot sifat so`z turkumiga aylantirilgan. Shuningdek, leksik transformatsiyadan foydalanilgan, “howler” so`zi izohli lug`atda keltirilishicha “yig`ichi, yig`lovchi kishi” ma’nosini anglatadi. Matn tarjimasida mazkur so`z aynan tarjimasi tushurib qoldirilgan va tuyaning dangasaligi va erinchoqligi tufayli “Dahshatli- Zerikarli” deb tarjima qilingan.

Asliyatda:

Presently the Horse came to him on Monday morning, with a saddle on his back and a bit in his mouth⁵

Tarjimada:

Kunlardan bir kun dushanba kun ertalab uning oldiga Ot keldi, egarlangan, tishlarida so`lig`i bor.⁶

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi,2016.-B.49.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi,2016.-B.49.

⁵ www.kiplingsociety.co.uk

⁶Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.49.

Asliyatda ot soʻz turkumiga oid “a saddle” soʻzi tarjimada “egarlangan” yaʼni feʼl soʻz turkumiga aylantirilgan. Shuningdek, egalik olmoshi “his” tushurib qoldirilgan va egalik maʼnosi tarjimada soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qoʻshilish orqali ifodalangan: “his mouth” tishlarida.

Asliyatda:

‘Well,’ said the Horse, ‘there’s a thing in the middle of your Howling Desert (and he’s a Howler himself) with a long neck...’¹

Tarjimada:

Unday boʻlsa bilib qoʻy- dedi Ot. -Sening Dahshatli-Zerikarli sahroyingda Dahshatli-Zerikarli bir hayvon yashaydi, uzun boʻyinli...²

Mazkur gap tarjimasida tushirib qoldirish leksik transformatsiya turidan foydalanilgan boʻlib, “oʻrtasi, oʻrta” maʼnosini anglatuvchi “middle” soʻzi tushirib qoldirilgan. Shuningdek, ot soʻz turkumi hisoblangan “neck” soʻzi sifat soʻz turkumiga aylantirilgan holda “boʻyinli” deb tarjima qilingan.

Redyard Kiplingning navbatdagi “Kitbaliqqa bunaqa halqum qayoqdan kelgan?” hikoyasida quyidagi grammatik transformativlardan foydalanilgan:

Asliyatda:

Then the Whale stood up on his tail and said, ‘I’m hungry.’³

Tarjimada:

Bir kuni Kitbaliq dumi tomonga boshini oʻgirib:

-Qornim ochib ketdi!- dedi.⁴

Mutarjim grammatik transformatsiyaning tushirib qoldirish turidan foydalangan “his” egalik olmoshi tushurib qoldirilgan va soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilgan: “on his tail” – “dumi tomonga”. Aslida “stood on his tail” jumlasini “dumiga tik turib” deb tarjima qilinishi kerak edi. Tarjimon tik turib soʻzlari oʻrnida “boshini oʻgirib” soʻzlarini tarjimaga kiritgan.

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.50.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.57.

Asliyatda:

...he made the sea froth up with his tail.¹

Tarjimada:

Dumi bilan suvni chapillatdi, to`lqinlar ko`piklanib ketdi.²

Tarjimon asliyatdagi sodda gapni o`zbek tiliga qo`shma gap shaklida tarjima qilgan.

Asliyatda:

Then the Whale opened his mouth back and back and back till it nearly touched his tail.³

Tarjimada:

Kitbaliqning og`zi borgan sari kattayib-kattayib-kattayib, naq dumining oldigacha ochilib ketdi.⁴

Grammatik transformatsiyaning o`rin almashtirishish turidan foydalanilgan holda asliyatdagi ega vazifasida kelgan “whale” so`zi tarjimada aniqlovchi vazifasida va asliyatda to`ldiruvchi vazifasida kelgan “mouth” so`zi tarjimada ega vazifasida kelgan. Mazkur jumla tarjimasida ham egalik olmoshi tushurib qoldirilganligining guvohi bo`lamiz: “his tail” “dumiga”

Ingliz tilining muhim sintaktik xususiyatlaridan biri sifatdosh va infinitivli ikki kesimli sodda gap tuzilish strukturasi. O`zbek tilida esa bir sodda gap bitta kesimdan iborat bo`ladi. Quyidagi asliyatdagi sodda gap shaklida bo`lgan jumla o`zbek tiliga qo`shma gap shaklida o`girilgan.

Asliyatda:

‘Tell him to come out,’ said the ‘Stute Fish.’⁵

Tarjimada:

Unday bo`lsa unga ayt og`zingdan sakrab chiqib ketsin!- deb maslahat berdi Balcha-Xolcha.¹

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.58.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.58.

⁵ www.kiplingsociety.co.uk

Asliyatda:

Have you forgotten the suspenders?²

Tarjimada:

Umid qilamanki, tasmalarni unutmagansan!³

Gapni tarjima qilishda antonomik transformatsiyadan foydalanilgan va gap shakli ham o`zgartirilgan bo`lib, bo`lishli so`roq gap bo`lishsiz undov gapga aylantirilgan. Shuningdek, asliyatdagi sodda gap tarjimada qo`shma gap shaklida berilgan.

Asliyatda:

'I ought to have warned you that he is a man of infinite-resource-and-sagacity.'⁴

Tarjimada:

Men senga u juda aqlli va qo`rqmas degandim-ku!⁵

Qo`shma gap shaklida bo`lgan gap o`zbek tiliga sodda gap shaklida tarjima qilingan. Grammatik transformatsiyaning yana bir turidan foydalanilgan bo`lib, asliyatdagi ot so`z turkumiga tegishli bo`lgan "resource and sagacity" so`zlari sifat so`z turkumiga aylantirilib tarjima qilingan.

Quyidagi gapda tarjimon bog`langan qo`shma gapni o`zbek tiliga sodda gap ko`rinishida tarjima qilgan. Bundan tashqari grammatik transformatsiyaning antonomik tarjima turidan ham unumli foydalanganligining guvohi bo`lamiz.

Asliyatda:

And he stepped out on the shingle, and went home to his mother, who had given him leave to trail his toes in the water;⁶

Tarjimada:

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.59.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.59.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

⁵ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.59.

⁶ www.kiplingsociety.co.uk

Shu soʻzlarni ayta turib, u qirgʻoqqa, mayda toshlar ustiga sakrab tushdi va suvda yalangayoq yurgan paytlarida hech urushmagan oyisining oldiga odimlay ketdi.¹

Asliyatda:

The Sailor took the jack-knife home. He was wearing the blue canvas breeches when he walked out on the shingle. The suspenders were left behind.²

Tarjimada:

Dengizchi esa ov pichogʻini ola ketgan, sohildagi toshloqda hamon koʻk kanop ishtonini kiyib yurardi, faqat endi ishtonini yelkasiga tortib turadigan tasmalari yoʻq edi.³

Asliyatda ikki sodda gap va bir qoʻshma gap oʻzbek tiliga bitta qoʻshma gap shaklida tarjima qilingan. Bndan tashqari koʻplikda berilgan “breeches” soʻzi “ishton”, yaʼni birlik otga aylantirilgan.

Keyingi tahlil qiladigan hikoyamiz “Yer tepingan Parvona” deb nomlanadi va mazkur hikoyada quyidagi grammatik transformatsiyalardan foydalanilgan.

Asliyatda:

He understood what the rocks said deep under the earth when they bowed in towards each other and groaned.⁴

Tarjimada:

U hatto tuproqning tagida, chuqur-chuqur joylarda toshlar bir-birini bosib ezib yuborganda va toshlar ingraganida nima deganini ham tushunardi.⁵

Asliyatda qoʻshma gap shaklida boʻlgan gap tarjimada uzun sodda gap shaklida berilgan. Yana hikoyada jonlantirish stilistik vositasidan foydalanilganligining guvohi boʻlamiz. Tuproq, tosh singlarilarni jonlantirib,

¹ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.60.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.60.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

⁵ Miraziz Aʼzam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.38.

ingrashi, gapirishi haqida fikr yuritiladi. Vaholanki, biz tuproqning, toshning ingrashi yo bo`lmasa gapirishini hech qachon ko`rmaganmiz.

Asliyatda:

And yet Suleiman-bin-Daoud was not proud.¹

Tarjimada:

Shunga qaramay Sulaymon ibn Dovud juda kamtar kishi edi.²

Mutarjim antonomik tarjimadan foydalangan bo`lib, asliyatdagi bo`lishsiz gapni bo`lishli gap shaklida o`giran.

Asliyatda:

He very seldom showed off, and when he did he was sorry for it.³

Tarjimada:

U deyarli hech qachon maqtanmasdi, bordi-yu bexos maqtanib qolsa, keyin bunga achinib, kuyunib yurardi.⁴

Ushbu gap tarjimasida ham antonomik tarjima transformatsiyasidan foydalanilgan bo`lib, asliyatdagi bo`lishli gap bo`lishsiz gap shaklida tarjima qilingan. Shuningdek, leksik transformatsiyaning qo`shish usulidan foydalanilgan bo`lib, “bexos” so`zi tarjimada qo`shilgan. Bundan tashqari mutarjim “sorry for” fe`lini “afsuslanardi” deb emas, balki “achinib, kuyunib yurardi” deb tarjima qilgan. Bu esa, tarjima jarayonida sinonim so`zlarni tanlash muammosini keltirib chiqaradi. Bunday muammolarni tarjimonlar asliyatdagi bir so`zning tarjimada ikki sinonim so`z bilan, yoki aksincha, ikkita so`zning bitta so`z bilan tarjima qilinishi orqali bartaraf etishadi.

Asliyatda:

Once he tried to feed all the animals in all the world in one day, but when the food was ready an Animal came out of the deep sea and ate it up in three mouthfuls.⁵

¹ www.kiplingsociety.co.uk

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.38.

³ www.kiplingsociety.co.uk

⁴ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.38.

⁵ www.kiplingsociety.co.uk

Tarjimada:

Bir kuni dunyoda mavjud bo`lgan hamma hayvonlarni bir kunning o`zida mehmon qilmoqchi bo`lganini jar qildi, ammo yemakni hozirlaganda dengizning tagidan allaqanday bir katta Alpayvon suzib chiqdi va hamma ovqatni uch yutishda tamom qildi.¹

Mutarjim ushbu qo`shma gapni tarjima qilishda o`rin almashtirish grammatik transformatsiyasidan foydalangan. Asliyatdagi “the food was ready” qismida “the food” ega vazifasida kelgan. Tarjimada esa bu so`z “yemakni” shaklida, ya’ni, to`ldiruvchiga o`zgartirilgan holda berilgan. Faqat ingliz tiliga xos bo`lgan artikl tushunchasi grammatik transformatsiya qo`llanishiga sabab bo`lgan. “an” artiklining o`zbek tilida mavjud emasligi sababli “an”-“qandaydir” so`zi bilan almashtirilgan. Asliyatdagi “it” olmoshi “ovqatni” so`zi bilan almashtirilgan va to`ldiruvchi vazifasida kelgan.

Asliyatda:

O Animal, you have eaten all the dinner that I made ready for all the animals in the world.²

Tarjimada:

Eh, Alpayvon, dunyoda mavjud bo`lgan barcha hayvonlar uchun hozirlagan yemagimni, sen bir zumda yeb qo`yding.³

Ingliz tilidagi ergashgan qo`shma gap o`zbek tilida bitta sodda gap shaklida tarjima qilingan.

Asliyatda:

... they all lived in a great golden palace in the middle of a lovely garden with fountains.⁴

Tarjimada:

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.38.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.37.

⁴ www.kiplingsociety.co.uk

Ularning hammasi favvorali xushmanzara bog`ning o`rtasida qad ko`targan kattakon oltin qasrda yashardi.¹

Asliyatda ot so`z turkumiga tegishli “favvora” so`zi tarjimada sifat so`z turkumiga aylantirilgan.

Asliyatda:

Suleiman-bin-Daoud heard one say to the other, 'I wonder at your presumption in talking like this to me.'²

Tarjimada:

Sulaymon ibn Dovud, Parvona Kapalakka dakki berayotganini eshitib qoldi.

- Menga qo`pol va qo`rs gapirishga qanday hadding sig`di.³

“Say” fe’li o`zbek tilidagi “aytmoq”, “gapirmoq” so`zlariga to`g`ri keladi. Ammo mutarjim leksik transformatsiyaning kompensatsiya usulidan foydalanib, kontekstdan kelib chiqib, bu so`z o`rnida “dakki bermoq” so`zini qo`llagan. “I wonder at” gap bo`lagini tarjima qilishda ham shu holat kuzatiladi. “wonder at” so`zining tarjimasi “hayratlanmoq, ajablanmoq”, “ishonch hosil qilmaslik” so`zlariga to`g`ri keladi. Tarjimada esa bu so`zlar tushurib qoldirilgan va o`rni boshqa so`zlar bilan to`ldirilgan. Shuningdek, asliyatdagi ot so`z turkumi tarjimada sifat so`z turkumiga aylantirilgan.

Robert Stivensonning xalq rivoyatlaridagi kuchli, dovyurak qahramonlar, oddiy insonlarning timsollarini ko`rsatuvchi “Supurgio`t sharbati” (“Heather ale”) balladasining o`zbek tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, undagi grammatik va leksik transformatsiyalarni topib tahlil qilishga harakat qilamiz.

Asliyada:

For life is a little matter,

And death is nought to the young;⁴

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.38.

² www.kiplingsociety.co.uk

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.39.

⁴ www.poemhunter.com/poem/

Tarjimada:

O`g`lim o`limdan qo`rqmas,

Unga bir pul halokat.¹

“The young” otlashgan sifat bo`lib, “yosh kishilar” ma`nosini anglatadi. Asliyatda umumiy yosh kishilar haqida gapirilgan bo`lsa, tarjimada aynan bir kishi ya`ni cholning o`g`li nazarda tutilgan. Mutarjim kontekstdagi ma`noni saqlagan holda “young” so`zi o`rnida “o`g`lim” so`zini tarjimada birinchi misra boshiga kiritgan. Shuningdek, bu so`z asliyatda to`ldiruvchi vazifasida kelgan bo`lsa, tarjimada u egaga aylantirilgan: “to the young”- o`g`lim. Birinchi misra tarjimasida antonomik tarjimadan foydalanilgan: “life” – “o`lim”. Mazkur misra tarjimasida tarjimon leksik transformatsiyaning kompensatsiya turidan ham foydalangan: “a little matter” so`zlari o`rnida “qo`rqmas” so`zi ishlatilgan. Ikkinchi misra tarjimasida esa “unga” olmoshi qo`shilgan.

Asliyatda:

There rose a king in Scotland,

A fell man to his foes.²

Tarjimada:

Yovga rahm-shavqatsiz

Shotland qiroli keldi.³

Tarjima jarayonida leksik transformatsiyadan foydalanilgan bo`lib, “rose”- o`sdi, ulg`aydi” so`zi o`rnida “keldi” so`zi ishlatilgan. Hol vazifasida kelgan “in Scotland” so`zi tarjimada aniqlovchi vazifasida kelgan, ya`ni bu grammatik transformatsiyaning gap bo`laklarini almashtirish turidan foydalanilgan. “Shotlandiyada ulg`aydi qiroli” misrasi qisqartirilib, ayrim so`zlar tushurilib, “Shotland qiroli” tarzida tarjima qilingan. Ikkinchi misrada “man” ot so`z turkumi va “his” egalik olmoshi tushurib qoldirilgan. Shuningdek, asliyatda

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.28.

² www.poemhunter.com/poem/

³ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi,2016.-B.26.

ko`plikda kelgan “foes” so`zi tarjimada birlik shaklida berilgan: to his foes-yovga.

Asliyatda:

“Life is dear to the aged
And honour little thing;¹

Tarjimada:

Chollar o`limdan qo`rqar,²
Yashayman xoinona...

Tarjimon antonomik tarjimadan foydalangan bo`lib, “life” “hayot, yashash” ma’nosini anglatadi. Tarjimada esa bu so`zga antonim so`z bo`lmish “o`lim” so`zi berilgan: life is dear- o`limdan qo`rqar. “Honour” so`zining o`zbekcha tarjimasi “or, nomus” bo`lib, tarjima jarayonida antonomik tarjimadan foydalanilib, “xoinona” deb tarjima qilingan. “The aged” otlashgan sifat bo`lib, o`zbek tiliga “qariyalar, qari insonlar” ma’nosini anglatadi. “The aged” so`zi ikkala jins vakillarni ham qari ayyollarni, ham qari erkaklarni ifodalab keladi. Tarjimada esa aynan bir jins vakillari, ya’ni chollar so`zi bilan ifodalangan. Mazkur she’riy misra cholning qirolga murojaatidan olinganligi tufayli “chollar” tarjimasi afzal topilgan. Zoya Proshinaning nazariyasiga binoan keng ma’noli so`z tor ma’noli so`z bilan almashtirilgan- leksik transformatsiyaning konkretlashtirish usuli.

Asliyatda:

But now in vain is torture,
Fire shall never avail:
Here dies in my bosom
The secret of the Heather Ale.³

Tarjimada:

Men gulxandan qo`rqmayman,

¹ www.poemhunter.com/poem/

² Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.28.

³ www.poemhunter.com/poem/

Ammo o`lgan mahalim

Men-la ketar qutli sir,

Supurgio`t asalim.¹

Avvalo ushbu misralar tarjimasida leksik transformatsiyaning tushurib qoldirish va kompensatsiya turlari ko`zga yaqqol tashlanadi: birinchi misra tushurib qoldirilgan; qolgan uch misralarda ham asliyatdagi so`zlar o`rnida boshqa so`zlardan foydalanilgan. Masalan: heather –asalim. “Fire shall never avail” misrasi tarjimasiga e`tiborni qaratsak, ushbu misra so`zma-so`z tarjima qilinsa “olov hech qachon foyda bermaydi” degan ma`noni, ya`ni chol o`limdan qo`rqmasligini anglatadi. Shu sababli tarjimon umumiy mazmundan klib chiqib, “men gulxandan qo`rqmayman” deb o`zbek tiliga o`girgan. “fire” asliyatda ega vazifasida kelgan bo`lsa, tarjimada to`ldiruvchiga aylantirilgan.

Umuman olganda, har bir asarning o`zbekcha tarjimalarida ikki til grammatikasining nomuvofiqligi sababli grammatik transformatsiyaning barcha turlaridan keng foydalanilgan. Grammatik transformatsiyalar kitobxonlarga asar tushunarli, qiziqarli bo`lishi uchun xizmat qilgan va asarlarning asliyatdagi asl mazmun-mohiyatini saqlab qolgan.

¹ Miraziz A`zam Jahon bolalar adabiyoti.-Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-B.29.

Xulosa

Ingliz hikoyalarining o`girmalaridagi transformatsiyalar tadqiq etilgan bitiruv malakaviy ishida quyidagi xulosalarga kelindi:

XIX asr oxiri XX asr boshlari bolalar adabiyoti o`ziga xos xususiyatlari bilan “yangi oltin davr” ni boshlab berdi.

Fantastika va didaktisizm yondashuvlarning ajoyib hamohangligi yozuvchi va shoirlar, jumladan, Redyard Kipling, Allan Miln, Robert Stivensonlarning asarlarida namoyon bo`lgan.

Xorijiy tillarda bitilgan asarlarni o`zbek kitobxonlariga tanishtirish maqsadida tarjimashunoslik sohasida ulkan ishlar amalga oshirilgan hamda bunday sa'y-harakatlar yurtimizda so`nggi asrda jadal rivojlangan.

Leksik transformatsiyalarning turlari haqida turli qarashlar mavjud. Leksik transformatsiya o`rin almashtirish, qo`shish, tushurib qoldirish kabi turlarga bo`linadi.

Grammatik transformatsiyalar tushurib qoldirish, qo`shish, so`z tarkibini o`zgartirish, sodda gaplarni qo`shma gap shaklida, qo`shma gapni esa sodda gaplar shaklida tarjima qilish kabi turlarga bo`linadi.

Tarjimashunoslikda eng muhim omil bir tilda yaratilgan asarlarni boshqa tilda qayta yaratishda leksik, grammatik va sintaktik transformatsiyalardan foydalangan holda asosiy ma`noni yetkazib berishga erishilgan.

Ikki til tuzilishi va grammatikasidagi nomuvofiqliklar grammatik va leksik transformatsiyalardan foydalanishni taqozo etgan.

Tarjimada turli so`zma-so`z, g`aloz birikmalardan qochish, uning adabiy hamma tushunadigan, yorqin so`zlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalanilgan.

Leksik va grammatik transformatsiyalar ham nasriy ham nazmiy asarlar tarjimasida qo`llanilgan.

Redyard Kiplingning “Karkidonga bunday teri qayoqdan kelgan” (“How the Rhinoceros got his skin?”), “Kitbaliqqa xartum qayerdan kelgan?” (“How

the Whale got his throat?”), “Tuyaga o`rkach qayoqdan kelgan?” (“How the Camel got his hump?”), “Yer tepingan Parvona”(“ The Butterfly that stamped”) hikoyalari va Alan Milnning “Qirolning saryog`li noni” (“King’s Breakfast”), Robert Stivenonning “Supurgio`t asali”(“Heather Ale”) balladalarining o`zbekcha tarjimalarida ko`p hollarda leksik transformatsiyaning o`rin almashtirish usuli, ayniqsa, kompensatsiya turidan foydalanilgan. Mazkur asarlar tarjimalarini lisonoy-uslubiy hamda badiiy tajima jihatdan tahlil qilar ekanmiz, kompensatsiya leksik transformatsiya usulidan yigirma to`rt marta foydalanilganligiga guvoh bo`ldik. Nazmiy asarlar tarjimasida ushbu leksik transformatsiya turidan keng ishlatilishiga amin bo`ldik. Shuningdek, leksik o`rin almashtirishning besh marotaba konkretlashtirish va besh marotaba umumiyashtirish usulidan foydalanilganligini aniqladik.

Bir tilda yaratilgan asarning boshqa tilga tarjima qilish jarayonida salmoqli darajada qo`llaniladigan transformatsiya turlaridan biri tushurib qoldirish turi bo`lib, mazkur asarlar tarjimasida o`n yetti marta va qo`shish turidan esa o`n bir marta foydalanilgan.

Alan Milnning “Qirolning saryog`li noni” balladasida va Robert Stivenonning “Supurgio`t asali” balladasida ko`proq leksik transformatsiyalardan, ayniqsa, almashtirishning kompensatsiya turidan foydalanilgan.

Ingliz bolalar adabiyoti asarlarning tarjimalarida grammatik transformatsiyaning asosan so`z tartibini o`zgartirish usuli kuzatildi. Bundan tashqari grammatik transformatsiyaning o`rin almashtirish-so`z turkumlarining o`zgartirilishi, gap bo`laklari vazifalarining va gap tuzilishining o`zgartirilishi-turidan ancha samarali foydalanilgan. Ushbu grammatik transformatsiyadan tahlil qilgan asarlarimizda yigirma uch marta foydalanilganligini aniqladik.

Mazkur nasriy va nazmiy asarlar tarjimasida grammatik transformatsiyaning gapni qo`shish turi uch marta va gapni ajratish turi ikki marta qo`llanilgan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshi ingliz bolalar adabiyoti vakillarining asarlari tarjimasida leksik va grammatik transformatsiyalardan unumli foydalanilgan hamda asliyat g'oyaviy-badiiy mazmunining tarjimada to'la-to'kis qayta yaratilishiga erishilgan. Asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlafrini puxta o'zlashtirilgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yarata olgan tarjimon tarjimada ijodiy me'yorning buzilmasligiga, aniqlikka erishgan. Personajlar nutqida ifoda etilgan zaruriy-uslubiy ta'sirchanlikni yaratib berishda leksik va grammatik tranformatsiyalardan foydalanish tarjimalarning muvaffaqiyatli bo'lishiga olib kelgan. Ingliz asarlari mo'ljallangan yosh vakillari-bolajonlar uchun nihoyatda tushunarli va qiziqarli tarjima variantlari yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-1875-sonli qarori. 2012. “Ma`rifat” gazetasi № 99. – B. 1-2.
2. Allomalar, buyuk siymolar, allomalar.- Toshkent: 1995, 1- kitob.- 48b.
3. Aznaurova E.S.,AbdurahmonovaKh.I. vaboshqalar. Translation theory and practice .-Toshkent: O`qituvchi,1989.
4. BarxudarovL.S. Язык и перевод.-Москва, 1978
5. Esenboyev R. Tarjima san`ati.-Toshkent,1986.
6. Miraziz A. “Jahon bolalar adabiyoti”.-T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2016.
7. KomissarovV.N. Общая теория перевода.-М.,2003.
8. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O`zbekiston Respublikasi FA”Fan” nashriyoti, 2005.
9. Nazarov S., Nazarova F., Adizova N., Poltayeva D. English-Uzbek dictionary. – T.:VEKTOR-PRESS,2009
10. G`afurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo`stoni, 2012.
- 11.Pumpyansky A. L. Упражнения по переводу английской научной и технической литературы. –Minsk: Попурри, 1997.
- 12.Salomov G`. Adabiy an`ana va badiiy tarjima.-T.:Fan, 1980
- 13.Svory T. The art of translation.-London,1957
- 14.Xudoyqulov A.E. Collection of lectures on the theory and practice of translation –Termiz: 2007.
- 15.G`aybulloh as-Salom Tarjima nazariyasi va amaliyotidan ma`ruza matn chizgilari.-T.: 2003.
16. Zoya Proshina.-Vladivostok: Far Eastern University Press. 2008.
- 17.Walter Benjamin. Task of the translator.-London:Routledge,2000.
18. http://en_m.wikipedia.org/wiki.com

19. <http://ir.uiowa.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=6161&context=iowarevie>
[w](#)
20. www.CALD
21. <http://www.jstor.org/stable>
22. www.kiplingsociety.co.uk
23. www.Longman Advanced American Dictionary
24. www.Merriam-Webster
25. www.PearsonLongman
26. www.twirpx.com.
27. www.Ziyouz.com.
28. www.Ziyonet.uz